




Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz



www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 48 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Shaxnoza Odayeva OLMOSHNING PRAGMASEMANTIK TABIATI	7
2. Мамасолиев Рустамжон Адҳамжонович “МУАЛЛИМ” КОНЦЕПТИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ	9
3. Махмудова Нилуфархон Равшановна АНТРОПОЦЕНТРИЗМ ПАРАДИГМАСИНИ ТИЛШУНОСЛИККА КИРИБ КЕЛИШИ	11
4. Махмудова Нилуфархон Равшановна АНТРОПОЦЕНТРИЗМ ЁКИ ТИЛГА АНТРОПОЦЕНТРИК ЁНДАШУВ МЕТОДОЛОГИ- ЯСИ	13
5. Ҳалимова Мухаёхон Мухаммедовна “БОШ” КОНЦЕПТИНИ ПАРАЛИНГВИСТИК КЎРИНИШИ	15
6. Ҳалимова Мухаёхон Мухаммедовна “БОШ” КОНЦЕПТИГА МОС МУХИМ ВА ЕТАКЧИ БЕЛГИЛАР	17
7. Achilova Noila Hamroqulovna O’LCHOV SO’ZLAR PRAGMATIKASI	19
8. Bobamuradova Sitora Eshboy qizi FRAZEEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASHDA TRANSFORMATSIYA USULINING MUHIM AHAMIYATI	21
9. Seytmuratova Ariwxan Ajiniyazovna SÚWRETLEW ÓNERI TERMINLERINIÝ ETIMOLOGIYALÍQ ANALIZI	25
10. Ягафарова Назиля Рафаиловна ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФИТОНИМОВ В РАЗНОСТРУК- ТУРНЫХ ЯЗЫКАХ	27
11. Ахмедова Сарвиноз Ҳикматовна ЎЗБЕК ФОЛЬКЛОРИДА ХИЗР КЎМАКЧИ ОБРАЗ СИФАТИДА	30
12. Sharipov Fazliddin Galiyevich JAHON TILSHUNOSLIGIDA LISON VA NUTQNING FARQLANISHI HAMDA TILGA SISTEMA SIFATIDA YONDASHUV	32
13. Muhirov Ravshanbek Urol o‘g‘li NUTQ MADANIYATI TO‘G‘RISIDA BIR SO‘Z	35
14. Abduraximova Muxabbat Abduraxmidovna MODERN METHODS OF TEACHING LISTENING SKILLS	38
15. Norova Fazolat Komilovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSALARIDA INTERAKTIV METODLAR	40
16. Islomov Sardor PIRIMQUL QODIROV TARIXIY ASARLARINING O’ZLASHMA QATLAMGA MANSUB SO’ZLAR TAHLILI	42
17. Kolondorova Laylo Kurbonboyevna ONA TILI DARSALARIDA O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH	44
18. Mamadjonova Sanoat Abduraxmonovna IMPROVING STUDENTS’ SPEAKING SKILLS	46



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДЌИҚОТЛАР

OLMOSHNING PRAGMASEMANTIK TABIATI

Shaxnoza Odayeva

Buxoro davlat universiteti lingvistika
yo`nalishi 1-bosqich magistranti

Annatatsiya. Ushbu maqola tilshunosligimizda tadqiq etilayotgan olmoshning pragmasemantik tabiatini haqida bo`lib, ularning tarixi, foydalanish o`rni hamda qo`llanish usuli doirasi haqida ham so`z boradi. Bundan tashqari, o`zbek tilshunosligidagi olmosh pragmasemantikasi ushbu maqolada ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar: Ichi bo`sh so`zlar, kishilik olmoshlari, shaxs ma`nosini bildiruvchi olmoshlar, miqdor va hurmat ma`nolarining ifodalashi.

Olmosh- atash ma`nosiga ega bo`limganligi uchun “ichi bo`sh” so`zlar deb yuritiladi. Olmosh tilshunoslikda boshqa so`z turkumlariga nisbatan noanananaviy qarashlarni o`zida mujassam qilgan. Olmosh so`z turkumida ma`lum bir so`roq mavjud emas, nutq sharoitidan kelib chiqib ma`lum so`roqqa javob bo`ladi. Qaysi so`z turkumi o`rnida kelsa, o`sha so`z turkumining so`rog`ini qabul qildi. Olmoshning eng xarakterli tomoni shunda. Garchi uning ma`no ifodalash qobig`I puch bo`lsada, biroq bu turkumdagagi so`zlar mustaqil so`z sifatida boshqa mustaqil so`zlar qatoriga qo`yilgan barcha talablarga javob beradi. Masalan, so`zlarni turkumlarga ajratish tamoyillariga ko`ra, olmoshlar mustaqil holda savolga javob bo`ladi, o`zi alohida gap bo`lagi vazifasini bajaradi.

Olmoshlarda shaxs, hurmat, miqdor, munosabat ma`nolarining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda voqelanishi, namoyon bo`lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshlaridan men, biz so`zlovchi ma`nosini bildiradi. masalan:bu ishlarni barchasiga biz aybdor bo`ldikmi? boshqa bu yerlarga kelmayman[2,3].

“Sen, siz” olmoshi tinglovchi ma`nosini bildiradi. masalan:sen, avvalo, mendan xafa bo`lma. Akmal, siz bugun darsga borasizmi?

“U, ular” olmoshi o`zga shaxs ma`nosini bildiradi. masalan: Sanobar juda chiroyli yozadi, u sinfda hammamizga o`rnak bo`lmoqda. Ular bizning ustimizdan kulishadi, chunki men ularga yoqmayman.

Kishilik olmoshlari so`zlovchi-nutq egasi, tinglovchi hamda uchinchi shaxs ma`nosini ifoda etuvchi so`zlardir.

I shaxs (so`zlovchi)

II shaxs (tinglovchi)

III shaxs (o`zga)

Nazariy adabiyotlarda ta`kidlanishicha, sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko`rstadi, ular so`zlovchi va tinglovchini ifodalovchi olmoshlaridir. Sof kishilik olmoshi shaxs ma`nosini ifodalashdan tashqari o`sha shaxs bilan bog`liq hodisa va predmetlarni ham ifoda eta oladi.

Masalan, Ertadan kechgacha tinim bilmay ishlayman, lekin bizning ishimizda unum yo`q emish.

“Men, sen, u, biz, siz, ular” so`zlar matn tarkibidan ajratib olinganda aniq ma`no ifoda etmaydi. Shuning uchun bunday so`zlar matnda nutq sharoitida beriladi.

Ergashov- majlis raisi labini burdi va bosh chayqab:

Men hech qanday maqola yozgan emasman, sizga hech narsa deganim yo`q, -dedi (A.Qahhor)

Miqdor ma`nosining ifodalanishi jihatidan men, sen birlik ma`nosini bildiradi. masalan:men, sen -ikkovimiz birga darsga boramiz.

biz, sizlar, senlar, bizlar ko`plik ma`nosini bildiradi. masalan: biz, yoshlar Vatanning kelajagimiz. Salima, Halima- sizlar bir sinfda o`qiyiszmi? Senlarga og`irligim tushayotgani yo`q. Bizlar bugun hammamiz yo`lga jo`nab ketamiz.



siz, ular birlikka ham, ko‘plikka ham betaraf ma’noni ma’nosini bildiradi. masalan:oyijon,siz bizga juda mehribonsiz.Dadam juda qattiqqo‘l insonlar,ular bizning kelajagimizni o`ylaydilar.

Hurmat ma’nosi II va III shaxs olmoshlariga xos. Masalan:Sobir tog`am juda soddadil inson,ular doimo gapimga ishonadilar.Salima bugun siz bilan dars qilaman.

Munosabat ma’nosi kishilik olmoshlarining kelishik qo‘srimchalarini olib o‘zgarishida yuzaga chiqadi.

Kishilik olmoshlariga egalik ma’nosi ham xos. Ushbu olmoshlar qaratgich kelishigida egalik ma’nosini bildiradi: bizning universitet respublikada eng oliv o`rinnarni egallab kelmoqda.

O‘zbek tilida egalik ma’nosi kishilik olmoshiga –niki qo‘srimchasini qo‘sish bilan ham ifodalanadi: meniki, bizniki, seniki kabi.

Olmosh qo’shma gaplarda havola bo’lak vazifasini ham bajaradi. Masalan, Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o’shaniki bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari bo’lib,hurmat, miqdor, kesatiq, manmanlik,o’zini ta’kidlamaslik ma’nolarini ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-Toshkent:Sharq,1998.- 78.
2. Abidova Sh.O‘zbek tilida hurmat ma’nosining ifodalanishi // O‘zbek tili va adabiyoti.2000. -B.67-71
3. Hakimov M.O‘zbek progmalingvistikasi asoslari.2013. -B.65-66
4. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007. В.15-18.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. -Тошкент – 2008. В.34-39.



“МУАЛЛИМ” КОНЦЕПТИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ

Мамасолиев Рустамжон Адҳамжонович
Фарғона давлат университети, ўқитувчиси
Телефон: +998911239556
Mamasoliyev1075@gmail.com.

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада “муаллим” концептининг воқеланиши ҳақида гап кетади, унда “муаллим” концептига доир тилшунос олимларимизни фикрлари ва муаллимни вазифалари ҳақида фикрлар келтирилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: муаллим, концепт, илм, тил, маданият тили, устоз, устод....

Ўзбек тилшунос олими М.И.Умархўжаев билимга шундай таъриф келтиради: Инсоннинг баркамоллиги илм билан. Шу боисдан илм ўрганиш ҳар бир шахс учун фарзdir. Дарвоқе, илм бизларга мерос мол-дунё, уни ҳарж килган сайин кўпаяверади, у сувда оқмайди, ўтда ёнмайди, илминг кўпайган сари дўстинг кўпаяди. Истеъмол қилсанг, умринг узаяди, илмни йиғиб, бошқаларга ўргатиб, қолдириб кетсанг, номинг абадийлашади, ўлсанг, илм бирга кетади, қабрда ҳамроҳинг бўлади. Боболаримиз айтганидай, кишига зебу зийнат ҳикмат ва донишдир, улар эса илм орқали ҳосил бўлади. Илм ўрганиш ибодат, илм эгаллаш ўйлида изланиш эса энг буюк жиҳоддир. Билмаган одамга илм ўргатиш садақларнинг энг афзали ҳисобланади. Илм ёлғизлик вақтида энг яхши ҳамроҳ, танҳо йўлларда ишончли йўлдош, дўстлар қошида зийнат, душманга қарши ўткир қуролдир. Илм олишнинг дастлабкиси сукут, сўнг тинглаш, кейингиси ёд олиш, навбатдагиси унга амал қилиш, энг охиргиси ўрганганларни бошқаларга ўргатишдир. Илм давлатдан хайрли. Илм-сен, сен эса уни асрайсан. Дунёда илмдан устун ва азиз ҳеч нарса йўқ. Юкорида келтирилган ҳикматни келтиришимиздан мақсад, илм олиш қанчалик мушкул бўлса, илм бериш шунчалик, унданда мушкулдир. Илмни ким беради?, деган саволга ҳаммамизнинг жавобимиз бирдек, албатта муаллим. Муаллимнинг илм беришда чекаётган заҳматлари ўқувчининг на фақат фан бўйича илм бериш, балки илм бериш ортидан тарбия бериш масаласи ҳам баробар кетиши ҳеч кимга сир эмас албатта. Биз ҳам шундай маърифат улашувчи, келажак авлодни тарбияловчи, ўз вақтида она вазаифасини ҳам бажарувчи касб эгаси муаллим, яъни “муаллим” концепти ҳақида ўз тадқиқотимизни олиб боришни давр талаби деб, ушбу таърифни тасвирийроқ ва аниқроқ ифода этиш мақсадида шу ишга қўл урдик. “МУАЛЛИМ” сўзи ўзбек тилига араб тилидан кириб келган бўлиб, ўзбек тили лексикасида арабча сўзлар алоҳида ўрин тутади. Арабча сўзларнинг ўзбек тилига кириб келиши араблар томонидан Ўрта Осиё ҳудудининг босиб олиниши ва бунинг тарихий-ижтимоий оқибатлари билан боғлиқ. Ўтмишда араб тилининг ҳукмрон тил – расмий давлат тили, таълим тили, фан ва маданият тили, бадиий адабиёт тили, дин ва шариат тили бўлганлиги арабча сўзларнинг ўзбек тилига кириб келиши учун сабабчи бўлган.

Хозирда тилимизда фаол қўлланилаётган мактаб, маориф, котиб, мухбир, муаллим, маънавият, санъат, адабиёт, ҳалқ, вазир, шоир, ватан, давлат, мақола, илм асар, таълим, саноат, ахборот, ходим, таржимон, талаба, жануб, шимол, анхор, ховуз, ариза, имзо, хат сингари сўзлар арабча ўзлашмалардир.

Арабча сўзларнинг ўзига хос муҳим белгилари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин: 1) сўз бошида -ма, -му элементлари келади: мадраса, мактаб, мажлис, муҳокама, муаллим, мударрис, мұнаққид, мұтаржим, мұсаввир, музокара кабилар; 2) сўз охирида -от, -ят, -ёт, -ат элементлари қатнашади: тарғибот, ташвиқот, ахборот, зарурият, ҳокимият, жамият, қашфиёт, тиббиёт, зурриёт, тижорат, саховат сингарилар; 3) сўз таркибида ъ (тутук белгиси) иштирок этади: санъат, аъло, раъно, маъно, таътил, меъмор, таъзим, эътиroz, суръат, эътиқод, эълон кабилар; 4) сўзнинг таркибий қисмида икки унли ёнма-ён келади: оила, шоира, доир, саодат, маориф, жамоат, қироат сингарилар.

“МУАЛЛИМ” сўзи юкорида келтирилган манбалардан кўриниб турубди-ки, араб тилидан кириб келган бўлсада, ўзбек тилида у аллақачон ўзлашиб ултурган ва у ўргатувчи, ўқитувчи деган маъноларни, яъни дарс берувчи киши: ўқитувчи, педагог маъносини англатади.

Синфга муаллим бўлиб киряпсизми ё ўрта асрлар тарихи учун кўргазмали курол



бўлибми? (С.Сиёев, Ёруғлик).

Фиқҳдан таълим берувчи муаллимнинг маоши 300 дирҳамни ташкил этган. (“Фан ва турмуш”).

Яна таълим берувчи, бирор нарса ўргатувчи киши; устод, устоз деган маъноларни ҳам билдиради.

Муаллим сўзи эркак жинсига мансуб устоз маъносини билдирса, аёл устозлар учун муаллима сўзи ишлатилади. Муаллима-муаллим аёл.

Отин буви дейишга тили бормайди..муаллима деса-чи? (М.Исмоилий, Фаргона тонг отгунча).

Демак, “муаллим- таълим берувчи” тушунчасидан ташкил топган, муаллим бизга маълум бўлган барча белги – хусусиятлари, вазифалари, жамиятдаги ўрни ва хоказоларни ўз ичига олади”. Муаллим концепти инсонга бўлган муносабатни ижобий эканлигини “ – меҳрибон устоз, ғамхўр муаллим” билдириши табиий.

Бу ёруғ оламда муаллим каби ўзлигидан кечиб, ўзгани камолга етказишга тайёр бўлган фидоий касб эгаси топилмаса керак. Муаллим-оддий инсон эмас, у тафаккур ва хикматлар тимсолидир. Пайғамбар алайҳиссалом: “Илм маърифат-жоҳилликнинг зидди. Муаллим бор жойда жаҳолат бўлмайди, барча ёмонликлар йўли беркилади. Муаллимни улуғлаган юрт-қуёши порлаган мамлакатдир” дейди. Дарҳақиқат, барчамизнинг қалбимизга яқин бўлган оддийгина бу сўзлар замирида катта маъно ва мазмун мужассамдир, зоро, ҳар қандай инсон муалимнинг қўлида савод чиқаради, мураббий ва устоздан таълим олади, тарбия тортади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. М.И.Умархўжаев. Қизил китобга тушмас туйғулар.-Т.Академик нашр.-Б.46
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати.-Б.229.



АНТРОПОЦЕНТРИЗМ ПАРАДИГМАСИННИ ТИЛШУНОСЛИККА КИРИБ КЕЛИШИ

Махмудова Нилуфархон Равшановна
Андижон давлат университети, доценти
Телефон: +998999012608
Makhmudova1076@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада антропоцентрик ёндашув тил ва шахс ўртасидаги ўзаро таъсирнинг моҳиятини тушунишда ва шунга мос равишида тилни ўзлаштириш обьекти сифатида тавсифлашда амалга оширилади, иккинчи ҳолатда, айниқса, педагогик тилицуносликда аниқ намоён бўлиши ҳақида баҳс юритилади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тилицунослик, лингвоцентрик ёндашув, системоцентрик тилицунослик, лексик сатҳ, индивидуал шаклланиши....

Ҳозирги кунда тилицуносларнинг фикрича, тилни мустақил тизим сифатида кўриб чиқиш ва уни «антропологик ҳодиса» сифатида тавсифлаш тилицунослик фанини тубдан ўзгартириб юборди. Ҳозирги замон тилицунослик тадқиқотарида янги антропоцентрик парадигмага йўналтирилишни ўрганиш тадқиқоти муҳим аҳамиятга эга бўлиб қолди. Тилицунос олим Ю. В. Дорофеев фикрича, “Тилицунослик устуворликларининг ўзгариши, лингвистик изланишнинг янги стратегияларини ишлаб чиқиш тилга оид мавжуд қарашлар тизими ва лингвистик тадқиқотлар тамойилларининг ўзгаришига ва тилицуносликда янги илмий парадигманинг шаклланишига олиб келди, деб ҳисоблайди.” Шуни таъкидлаш керакки, янги антропоцентрик парадигма фанда чуқур тарихий илдизларга эга. Антропологик асосларда тил фанини яратиш ғоясини биринчи бўлиб ифода этган олимлардан бири атоқли немис олими В. фон Гумбольдт бўлди. Унинг фикрича, “тилни ўрганиш ўз-ўзидан якуний мақсадни истисно этмайди, балки бошқа барча соҳалар қатори инсон руҳиятининг биргаликдаги интилишларининг олий ва умумий мақсадига, инсон руҳининг ўзини билиш мақсадига ва унинг атрофида кўринадиган ва яширин бўлган ҳамма нарсага муносабати англашга хизмат қиласи” –деб фикрларни илгари суради олим. В. фон Гумбольдт илгари сурган ғоялар А. А. Потебнянинг илмий изланишларида ўз ифодасини топган. Тилининг ривожланиши ҳақида фикр юритар экан, у Гумболдт изидан борган ҳолда, унинг антропоцентрик характеристикини таъкидлайди: “Ҳақиқатда тил фақат жамиятда ривожланади, бу нафақат инсон доимо ўзи мансуб бўлган бутунликнинг, яъни ўз қабиласининг, халқининг, инсониятнинг бир қисми бўлганлиги сабабли эмас, балки ижтимоий корхоналарнинг имконияти шартлари каби фақат ўзаро тушуниш зарурати туфайли эмас, балки инсон ўзини фақат ўз сўзларининг тушунарлилигини бошқаларга синаб кўриш орқали англиши учун,-деб таъкидлайди тилицунос олим. Бундан ташқари, Э. Бенвенистнинг «тилни сўзлашувчилар томонидан ўзлаштирилиши» ғояси қизиқ фактларга асосланди. Э. Бенвенист биринчилардан бўлиб, тилга тизимли тавсиф бераб, муаллиф ва адресат тушунчаларини зарур компонентлар сифатида киритган. У ўзининг “Умумий тилицунослик” китобида “Тилининг хоссалари шу қадар ўзига хоски, моҳиятан тилда бир эмас, балки бир нечта тузилмаларнинг мавжудлиги ҳақида гапириш мумкин ва уларнинг ҳар бири яхлит тилицуносликнинг вужудга келиши учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин”. –деб фикрини давом эттиради тилицунос олим. Яна Э. Бенвенист формуласида тил ва инсон ўртасидаги узвий боғлиқлик ҳақидаги тезисда шундай дейилади: “Тилсиз ва ўзи учун тил ўйлаб топмаган одамни тасвирлаб бўлмайди. Дунёда фақат тили бўлган одам бор, у бошқа одам билан гаплашади ва тил, албатта, инсоннинг таърифига тегишлидир. Айнан тилда ва у орқали инсон субъект сифатида шаклланади”-деб эътироф этди олим. 20-асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Э. Бенвенист ғоялари тилицуносликда мустаҳкам ўрин ола бошлади.

70-йилларда рус тилицуноси Ю.С.Степанов Э. Бенвенистнинг тилицунослик ривожига қўшган ҳиссасини таҳлил қиласи экан, “тил инсон ўлчови билан яратилган, бу масштаб тилининг ўзидаёқ муҳрланган; унга мувофиқ тилни ўрганиш керак. Бинобарин, тилицунослик ўзининг асосий магистралида ҳамиша инсонда тил ва тилда инсон ҳақидаги фан, бир сўз билан айтганда, биз Бенвенист китобида гувоҳ бўлганимиздек, гуманитар фанлар – асосий фанлар бўлиб қолади”-деб фикр келтиради тилицунос олим. Яна бир Литвалик машҳур



тадқиқотчи Р. И. Павилениснинг “гап нафақат лингвистик ибораларнинг пассив референти, балки уларнинг фаол таржимони, нафақат она тилида сўзлашувчи, балки биринчи навбатда - маълум концептуал тизимларнинг ташувчиси бўлган шахс ҳақида бормоқда, улар асосида у тилни тушунади, дунё ва бошқа она тилида сўзлашувчилар билан мулоқот қиласиди” тушунтириши диққатга сазовордир-деб таъкидлайди у.

Ўтган асрнинг 80-90-йиллари тил ва инсон муносабатларини назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ қилиш даврига айланди. Бундай таҳлилга биринчи қадам Б. А. Серебренниковнинг “Тилдаги инсон омилиниң роли. Тил ва тафаккур” монографияси хисобланади. Тилшуносликнинг кейинги ривожланиши тадқиқотчиларнинг инсон тили ва унинг тафаккури ўртасидаги муносабатлар муаммосига қизиқишининг ортиши билан боғлиқ. М. А. Шелякин таъкидлаганидек, «тилнинг семантик тузилиши субъектив воеликнинг тузилиши, фикрлаш шакллари ва жараёнлари билан олдиндан белгиланади ва инсоннинг дунёга йўналишини акс эттиради». Шундай қилиб, антропологик парадигма шахсни биринчи ўринга қўяди ва тил уни энг муҳим хусусият, мавжудлик шарти деб атайди. Инсон ақл-заковати тилдан ташқарида тасаввур қилиб бўлмайди. Инсон томонидан яратилган матнлар тафаккур динамикаси ва фикрлаш жараёнларини лингвистик воситалар ёрдамида ифодалаш усулларини акс эттиради. Ушбу парадигма доирасида когнитив лингвистика, лингвокултурология ва бошқалар каби соҳалар шакллантирилмоқда. У томонидан яратилган матнларни таҳлил қилиш орқали инсон фаолиятининг ақлий соҳасини тадқиқ қилишнинг долзарблиги маданият тавсифига герменевтик ёндашувни амалга ошириш билан тасдиқланади. Ушбу ёндашувнинг моҳияти шундан иборатки, маданият маълумотлар йиғиндиси, инсоният маданий ютуқлари натижаси бўлган матнлар йиғиндиси сифатида қаралади. Замонавий тил фанининг терминологик тизимининг муҳим таркибий қисми маҳаллий тилшуносларнинг тадқиқотларида акс этган «антропоцентрик ёндашув» атамаси хисобланади. В.М. Алпатов ўзининг «Тилга антропоцентрик ва тизим-марказий ёндашувлар тўғрисида» асарида таъкидлаганидек, антропоцентрик ёндашув тарихий жиҳатдан бирламчи бўлиб, тадқиқотчи тилни унинг ташувчиси сифатида ўрганади ва «тил эгаси тасаввурларини кўпинча лингвистик интуиция деб аталадиган тушуниш ва тавсифлашга» таянади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бенвенист, Э. Общая лингвистика / Э. Бенвенист; пер. с фр. / общ. ред., вступ. ст. и коммент. Ю. С. Степанова.– Изд. 2-е, стереотип. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – 448 с.
2. Гумбольдт, Вильгельм фон. Язык и философия культуры/ Вильгельм фон Гумбольдт-М:Прогресс, 1985.-451 с.
3. Земская, Е.А..Сорременній русский язққ.Словообразование/ Е.А.Земская,- М.:Просвещение,1973.-304 с,



АНТРОПОЦЕНТРИЗМ ЁКИ ТИЛГА АНТРОПОЦЕНТРИК ЁНДАШУВ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Махмудова Нилуфархон Равшановна
Андижон давлат университети, доценти
Телефон: +998999012608
Makhmudova1076@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада антропоцентрик ёндашув тил ва шахс ўртасидаги ўзаро таъсирнинг моҳиятини тушунишда ва шунга мос равишида тилни ўзлаштириш обьекти сифатида тавсифлашда амалга оширилади, иккинчи ҳолатда, айниқса, педагогик тилшуносликда аниқ намоён бўлиши ҳақида баҳс юритилади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тилшунослик, лингвоцентрик ёндашув, системоцентрик тилшунослик, лексик сатҳ, индивидуал шаклланиши....

Тилшунослик фани тараққиётининг тилни тавсифлашда аниқ белгиланган иккита ёндашув мавжудлигини айтишимиз мумкин - лингвоцентрик ва антропоцентрик. Лингвоцентрик ёндашув доирасида тил тизими ва унинг таркибий қисмларининг изчил тавсифи амалга оширилади ва биз тавсифловчи-классификация қилувчи (объект марказли, системоцентрик) тилшунослик билан бирга ўрганилишига эътиборни қаратамиз. Антропоцентрик ёндашув тил ва шахс ўртасидаги ўзаро таъсирнинг моҳиятини тушунишда ва шунга мос равишида тилни ўзлаштириш обьекти сифатида тавсифлашда амалга оширилади, иккинчи ҳолатда, айниқса, педагогик тилшуносликда аниқ намоён бўлади. Ушбу ёндашувни қўллайдиган тилшунослик антропоцентрик деб аталади.

Тилни тавсифлашда кўрсатилган икки ёндашувни фарқлаш учун келтирилган асослар илк бор В. фон Гумболдт асарларига бориб тақаладиган тил-эргоннинг тил-энергияга қарама-қарши қўйилиши, иккинчидан, тил мавжудлигининг икки шакли - ижтимоий-этник ва индивидуал-этник ҳисобланиши билан далилланади.

Тил ижтимоий ҳодиса сифатида маълум бўлиб, бутун фонетик, лексик ва грамматик воситалар тизимини қамраб олади, уларни билиш фақат бутун тил ҳамжамиятига нисбатан ифодаланиши мумкин, тилнинг индивидуал намоён бўлиши ҳар доим ўзига хосдир ва этник тилнинг маълум бир қисмини қамраб олади.

Системоцентрик тилшунослик эса агрегат ижтимоий ҳодиса сифатида тил доирасидаги тил ривожланишининг баъзи аниқланган натижаларига эътибор қаратади, антропоцентрик тилшунослик эса инсон онгига тилнинг индивидуал шаклланиши ва ривожланиши жараёни билан доимо қизиқади.

Тилнинг икки кўриниши ўртасидаги сезиларли фарқ лексик сатҳдаги бирликларнинг антропоцентрик тавсифида бошқарилиши керак бўлган бир қатор принципларни ишлаб чиқишига имкон берди: 1) тасвирланаётган тилнинг “пайвандланган” хусусиятини ҳисобга олиш, 2) тил материалининг кейинги семантизациясига эътибор қаратиш, 3) тил бирликларининг ахборот талқини, 4) “тил-нутқ” дихотомиясини ҳисобга олиш, 5) нутқ фаолиятининг ҳар хил турларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш, 6) лингвистик ва металлингвистик обьектларнинг майдон тузилишига эътибор бериш, 7) «тизимли чокларнинг» икки томонлама тавсифи, 8) урғу конструктивлиги, 9) ифодаланган мослашувчанлик.

Тилнинг антропоцентрик тавсифи тамойилларининг номли тизими В.В. Морковкиннинг лугат лексикологияси концепциясининг асосини ташкил этди ва бу лексик тизимни антропоцентрик лексикография нуқтаи назаридан тавсифлаш имконини беради. Антропоцентрик ёндашув терминологияси тадқиқотчиларнинг лексик сатҳнинг асосий бирликлари ва тоифаларини янги талқинига ўтаётганлигини кўрсатади. Бундай муносабат когнитив (А.А. Залевская, А. Вежбицкая, Г.И. Кустова, Анна А. Зализняк, Р.М. Фрумкина), лингвокултурологик (Ю.Н. Караполов, Ю.С. Степанов, Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров), коммуникатив-прагматик (Ю.С. Степанов, А.Г. Балакай, Н.И. Формановская) ва тилни кўриб чиқишининг бошқа жиҳатлари доирасида амалга оширилади, аммо, бизнинг тадқиқотимиз учун лексикологик обьектларнинг антропоцентрик талқинининг соф лингвистик жиҳатига эътибор қаратиш муҳимдир. Бу талқиннинг хусусиятлари “сўз”, “лугавий бирлик”, “лексик



тизим бирлиги”, “лексик полисемия”, “сўз маъноси”, “термин”, “сўз маъноси”, “термин”, «синонимия», «паронимия» каби тушунча ва категорияларни изоҳлашда яққол намоён бўлади.

Лексик сатҳдаги объектларни, шунингдек, бутун лексик тизимни антропоцентрик моделлаштириш «қурилиш моделларини назарда тутади ва улар объектларнинг босқичмабосқич сифат жиҳатидан дегенерациясини (қайта пайдо бўлиши), уларнинг дискрет бўлмаган (узлуксиз) табиатини (Ю.Н. Караповнинг «правило шести шагов» га қаранг) акс эттиради ва биринчидан, лингвистик ва металлингвистик объектларнинг майдон тузилиши ҳақидагиояга, иккинчидан, «тил бирлиги (биринчи навбатда, сўзлар)» маъносининг сезиларли даражада ўхшашлиги ҳақидаги тезисга асосланади, хосил бўлиш жараёнида маълум бир товуш мажмуаси билан боғлиқ бўлган нарса ва инсон мулоқотда фойдаланиши учун маълум қилиниши керак бўлган бирликнинг маъноси билан мослашади. (В.В. Морковкин).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алпатов, В. М. Об антропоцентричном и системоцентричном подходах к языку / В. М. Алпатов // Вопр. языкоznания. – М., 1993. – № 3.
2. Бенвенист, Э. Общая лингвистика / Э. Бенвенист; пер. с фр. / общ. ред., вступ. ст. и comment. Ю. С. Степанова.– Изд. 2-е, стереотип. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – 448 с.
3. Богин, Г. И. Филологическая герменевтика / Г. И. Богин. – Калинин: Изд-во КГУ, 1982. – 86 с.



“БОШ” КОНЦЕПТИНИ ПАРАЛИНГВИСТИК КҮРИНИШИ

Халимова Мұҳаёхон Мұхаммедовна
Андижон давлат университети, ўқитувчиси
Телефон: +998916161808
Mukhayo1978@gmail.com

АННОТАЦИЯ: XX аср охири – XXI аср бошларида маданиятлараро муносабатлар, тил луғат таркибини ўрганиш самарадорлигини ошириш йўлларини излаш мақсадида тиљшунослар айнан соматик лексикага катта эътибор бера бошладилар. Биринчи бўлиб, ушбу термин Ф.О. Вакк тарафидан олиб кирилди.

КАЛИТ СЎЗЛАР: соматизм, концепт, паралингвистик воситалар, бош, лексика, термин, тана аъзолар, белгилар, имо-ишора, позалар, юз ифодаси....

Конкрет нутқ вазиятида маълум бир маъно ифодаловчи имо-ишоралар шу нутқ вазиятини қайта ҳикоя қилиб бериш жараёнида маълум лингвистик бирликлар ёрдамида тасвир қилинади. Демак, ҳар бир тилда имо-ишораларни ифодаловчи бир қатор феъллар мавжуд. Мазкур феъллар семантик томонидан ишора феъллари деб юритилади. Масалан, кўз қисди, лабини бурди ва бошқалар. Инсоннинг мимикалари, қўл ҳаракатлари табиий ва шартли характерга эга.

Тилдаги лингвистик бирликларнинг даврлар ўтиши билан ўзгариш жараёни рўй берганидек, паралингвистик бирликларда ҳам ана шундай ўзгариш содир бўлиши – айримларининг эскириб истеъмолдан чиқиши ва янги воситаларнинг кириб келиши мумкин. Масалан, ўзбек ва тожик халқлари ўртасида илгари қўлини қўйиши билан саломлашиш одати ҳозирги даврда кўпроқ бош силкитиши билан ифодаланмоқда.

Ўзбек тили таркибида субститутив функция бажарадиган қуйидаги инкор ифодаловчи кинетик воситалар учрайди. Бошнинг горизонтал ва вертикал ҳаракатлари жаҳоннинг жуда кўп халқларида тарқалган бўлиб, тасдиқ ва инкор ифодалаш учун хизмат қиласи. Жумладан, ўзбекларда ҳам калланинг горизонтал ҳаракати «йўқ», вертикал ҳаракати эса «бор» маъносини ифодалайди. Бу белгиларнинг тасдиқ маъноси учун «бош иргамоқ», инкор маъноси учун «бошини чайқамоқ» каби вербал воситалар ишлатилади. Масалан: Хат ёзib тур, – дедим. Бош иргаб, кўчага чиқдим. (Ў.Умарбеков)

Ёнида ўтирган аълам унинг сўзини маъкуллаб, бошини қимиirlатди. (А.Қаххор)

Тасдиқ ва инкорнинг семантик қутб белгилари қарама-қарши кинетик шаклларни талаб қиласи. Калланинг олдинга ва пастга ҳаракати сухбатдошининг фикрига, хоҳишига қўшилганини ифодалаб, тасдиқ маъносини билдиради. Бунинг антоними сифатида сухбатдошининг фикрига, хоҳишига қўшилмаганини – инкорини ифодалаш учун каллани олдинги ҳаракатга қарама-қарши томонга силкиш ҳам мумкин эди (Ўрта ер денгизи атрофидаги баъзи ерларда – Афина грекларида, Жанубий Италиянинг айрим районларида, неопалитонлар ва калабрийлар орасида тасдиқ ва инкор худди мана шундай йўл билан ифодаланади). Аммо калланинг бундай қутб ҳаракатининг маъно ҳаракатининг маъно дифференциациясига эмфатик тасдиқ ҳамда эмфатик инкор учун ҳаракатнинг такрорланиши халақит беради. Яъни эмфатик нутқий такрор «ҳа, ҳа, ҳа!!» ва «йўқ, йўқ, йўқ!»ларнинг кинетик субститути сифатида калла биринчи маънони ифодалаш учун «олдинга-орқага, олдинга-орқага, олдинга-орқага», иккинчи маънони ифодалаш учун «орқага-олдинга, орқага-олдинга ва орқага-олдинга» ҳаракат қилиши керак бўлади. Бу эса ҳаракатлар дифференциациясини деярли йўқотади, коммуникацияни қийинлаштиради. Шу туфайли ҳам туркий ва ҳинд-оврупо халқларининг баъзи бирларида иккинчи маънони ифодалаш учун вертикал калла ҳаракатининг зидди сифатида горизонтал калла ҳаракати қабул қилинган (ҳар икки калла ҳаракати ҳам келиб чиқиши жиҳатидан Ч.Дарвиннинг юқоридаги фикрига мос келади). Аксинча, болгарларда вертикал калла ҳаракати инкорни, горизонтал калла ҳаракати эса тасдиқни ифодалайди. Болгарлардаги тасдиқни ифодаловчи горизонтал калла ҳаракати ўзининг инкор зидди асосида ҳосил бўлган, иккиласми характерга эгадир.

Туркий халқларда, жумладан, ўзбекларда калланинг горизонтал ҳаракати қуйидагича



инкор маъноларини ифода қиласи: а) қисман инкорни билдиради. Бундай вақтларда инкор билдирувчи имо-ишорадан сўнг сўзловчининг тасдиқ жавоби кутилади. Бу жавоб сухбатдошининг гапидаги мантиқий урғу тушган бўлакнинг жавоби бўлади. Вербал воситаларнинг «йўқ, ундан эмас, балки ...дир» моделининг инкор қисмининг компенсацияси бўлиб келади. Масалан, сухбатдошининг фикри: мана бу Очил буванинг кичик ўғли. Тингловчи: калланинг горизонтал ҳаракати – ўртанчиси. Юқоридаги гапда мантиқий урғу «Очил бува»га тушадиган бўлса, у вақтда тингловчи калланинг горизонтал ҳаракати билан боланинг Очил буванини эканини инкор қиласи ва ўзи тасдиқ жавобини вербал восита билан баён қиласи. Масалан, калланинг горизонтал ҳаракати – Карим буванинг;

б) тўлиқ инкорни билдиради. Бу вақтда инкор ифодаловчи имо-ишорадан сўнг сўзловчининг ҳеч қандай фикри кутилмайди. Бундай имо-ишоранинг характерли белгиси асосан -ми юкламаси орқали ифодаланган сўроқ гапларга жавоб бўлиб келади. Мантиқий урғу кесимда бўлади. Масалан: Ручканг борми? Жавоб: калланинг горизонтал ҳаракати. Ёки: Бирор жойинг оғрияптими? – Бола бошини чайқабди. («Сув одами», серб халқ эртагидан)

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар.-Андижон, 2016. Б.-258
2. Исаев А. И. Соматические фразеологизмы узбекского языка: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.



“БОШ” КОНЦЕПТИГА МОС МУҲИМ ВА ЕТАКЧИ БЕЛГИЛАР

Халимова Мұҳаёхон Мұхаммедовна
Андижон давлат университети, ўқитувчиси
Телефон: +998916161808
Mukhayo1978@gmail.com

АННОТАЦИЯ: XX аср охири – XXI аср бошларида маданиятлараро муносабатлар, тил луғат таркибини ўрганиш самарадорлигини ошириш йўлларини излаш мақсадида тилшунослар айнан соматик лексикага катта эътибор бера бошладилар. Биринчи бўлиб, ушбу термин Ф.О. Вакк тарафидан олиб кирилди.

КАЛИТ СЎЗЛАР: соматизм, концепт, бош, лексика, термин, тана аъзолар, белгилар, имо-ишора, позалар, юз ифодаси....

XX аср охири – XXI аср бошларида маданиятлараро муносабатлар, тил луғат таркибини ўрганиш самарадорлигини ошириш йўлларини излаш мақсадида тилшунослар айнан соматик лексикага катта эътибор бера бошладилар. Биринчи бўлиб, ушбу термин Ф.О. Вакк тарафидан олиб кирилди. Унинг фикрича, соматизмлар концептнинг энг қадимий қатламларидан бири бўлиб, ҳар бир тилнинг кенг ишлатилувчи лексик бирликлари саналади». Шуни айтиш мумкинки, «соматизм» терминининг шарҳи ва қамрови масаласида тилшунослар бир тўхтамга кела олганларича йўқ.

Ф. Вакк соматизмлар таркибида киши ёки ҳайвон тана аъзоларининг отлари, танадаги нарса ва суюқликларнинг отлари («қон», «суяқ», «нервлар» ва б.), шунингдек, рамз ва ҳолатни акс эттирувчи турғун бирималарни киритган. О. Назаров эса фразеологизмлар сирасига киши тана аъзоларини атовчи соматизм компонентли лексик бирликларнинг киритган холос. Шундай қилиб, XX асрнинг иккичи ярмидан бошлаб, «соматизм» термини тадқиқотларда киши танасининг барча аъзоларини англатувчи сўзларга нисбатан кўллана бошлади. Тилшуносларнинг соматизмларга бунчалик қизиқишининг сабаби киши ўзини кимса сифатида англашида, биринчи галда, у ўз тана аъзоларининг сезгиларига таяна олиши туфайлидир. Олим А.М. Кочеваткин, соматик лексиксанинг хусусияти алоқадорлиги ва номланиш обьектидан келиб чиқиб, уларни гурухлаштириб чиқкан. Тилшунос Н.М. Шанский эса соматик лексикани уч гурухга бўлган: киши танасини умумий ҳолда англатувчи, ички аъзоларни ифодаловчи ва танаси ҳамда унинг аъзоларини айри-айри англатувчи сўзлар. Е.М. Верещагин ва В.Г. Костомаровнинг фикрича, соматик тил уч хил ҳодиса: белгилар, имо-ишора, позалар, юз ифодаси, кўнгил ҳолати ва ҳаракатлар билан боғлиқ турли симптомлар таъсирида юзага келади. Шу билан бир қаторда, киши юзи ва танаси кўпда унинг ўзига боғлиқ бўймай қоладиган эмоциялар ва таъсиirlарни акс эттиради. Турли ҳалқлар ўз хиссиятини турлича ифода этишини кўзда тутган ҳолда, таъкидлаш ўринлики, уларнинг соматизмлари ҳам фарқланиб туради; масалан, белги ифодалаш тарзи, имо-ишоралари ва бошқалар. Ўзбек тилшунос олими А. Исаев ўзбек тилининг соматик лексикасини ўрганар экан, энг фаол қўлланувчи ва сермаҳсул соматизмлар қаторида: бош – 158 та, кўз – 144та, кўл – 92 та фразеологик бирликни қайд этган.

Бизнинг тадқиқотимиз ҳам инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг лисоний манзараси воқелашувида “head / бош” соматизми мавзуга бағишлиланган бўлиб, “Бош” концептига мос мухим ва етакчи белгиларда бири таннинг бўйиндан юқори, олдинги (одам, ҳайвонларда) қисми; калма вазифаларини бажаришдан тўхташидир. Унда, мисол учун, қуйидаги каби концептуал семалар мавжуд: ақл – хуш, мия, бошлиқ, раҳбар, лавозим, мансаб жихатидан катта, юқори турувчи, улкан катта, асосий, энг мухим, етакчи, энг олдинг, одам киши, жонивор, баъзи ўсимликларнинг калла ёки чочоқ шаклидаги ҳосили меваси каби 20 дан зиёд концептуал семалардир. Улар ўзбек тилида турлича мақомга эга бўлган (сўз, сўз биримаси, фразеологик бирлик, паремис, гап ва матн) турли тил сатҳлари орқали тилда ўз ифодасини топганига гувоҳ бўлдик. У ёки бу концептуал семанинг лисоний либос касб этишда лингвистик концептуал семаларининг лексема, синталесма (фразема ва сентенема), фразеолема ва текстемалар орқали вербаллашуви, бир сатҳ бирликлари ёки сатҳлараро бирликлар ўртасида синоним, оманим, антоним, моносемантик, полисемантик ва



синаретик ифода воситаларининг мавжудлиги, вербализаторлар ўртасида лингвостилистик, жанровий ўзига хосликлар лингвомаданий, гендер, психологик, ижтимоий хусусиятларнинг мавжудлиги) ва экстравангвистик, (прагмалингвистик, тил эгаларининг ижтимоий мақоми, кабс – кори, ёши, жинси кабилар) омиллар мухим аҳамият касб этади. Юқоридагилар асосида концепт семалари лисони семаларда ўзининг аниқ ифодасини топади. Масалан, У шошилиб ўт бошини гап тарафга берди (С.Ахмад Уфқ), Тоғнинг кўрки тош билан, одамнинг кўрки бош билан (ақл - хуш) Мақол; Қирқ йигитча, бош бўладиган хотин эди (бошлиқ) (С.Аҳмад кўшчинор чироқлари, бош фарзанд (биринчи), бир бошга бир ўлиб (киши) қол, куёш тик кўтарилиб исақдан масаларнинг боши эгилди (Шуҳрат нишоналли йиллар), тез – тез бошига бориб тур (ён, олд, томон) (К.Яшин, Ҳамза), бир бош карак (калла шаклидаги ҳосил), Зайноб ҳам умид билан бир ёситиққа бош қўйган (А.Қодирий, Ўтган кунлар). Ачиқланма, бек йигит, ўзи уятган қиз, яна боши боғлиқ унаштириб қўйилган (Ойбек, Навоий), Отанинг бошига етган ўшалар (ўлдирган) (А.Кучимов ҳалқа), каримқул акадан эшитиб, бошим кўкка етди ғоят ҳурсанд бўлмоқ (Ойбек Олтин водийдан шабадалар), Бемор касалдан бош кўтарди (тузалди), эгди (моат тутди) (Ў.Хошимов қалбингга қулоқ сол), Бошвоқсиз давронни сурмоқдаман кўп, маза – қилиб қандимни урмоқдаман хўп (Эркин, озод) (Р.Бекназ, Тутиё), Арзимаган иш деб бошини ҳам қилманг (уятга, номусга қолдирмоқ) (С.Аҳмад, уфқ)

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Исаев А. И. Соматические фразеологизмы узбекского языка: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.
2. Долгополов Ю. А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии (на материале русского, английского и немецкого языков): дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 1973. – 263 с,



O'LCHOV SO'ZLAR PRAGMATIKASI

Achilova Noila Hamroqulovna,
Buxoro davlat universiteti lingvistika yo`nalishi
1-bosqich magistranti

Annatatsiya. Ushbu maqola tilshunosligimizda tadqiq etilayotgan o'lchov so'zlar pragmatikasi haqida bo`lib, ularning tarixi, foydalanish o'rni hamda qo'llanilish usuli doirasi haqida ham alohida so'z boradi. Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligidagi o'lchov so'zlar hamda boshqa tillar doirasidagi hisob so'zlar qiyosi ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.


Kalit so'zlar: o'lchov so'z, pragmatika, sonlar, miqdor, ot, so'z turkumi, o'lchov, hisob.

Bugungi kunda tilshunosligimizda faol qo'llanilayotgan o'lchov so'zlar yaqin davr ichida paydo bo`lib qolgan emas, ularning qo'llanilish davri qadim paytlarga borib taqaladi, asosiy o'lchov so'zlarning qo'llanilish davriga oid asosiy manbalar qadimgi turkiy til va XI-XIV asrlarga to`g'ri kelsa-da, uning kengayishi, iste'molda keng qo'llanilishi XV asrdan boshlangan, eski o'zbek tilida ham o'lchov so'zlar keng iste'molda bo'lgan va hozirgi kunda ham tez-tez foydalanilmoqda. Bu aynan texnika asrining rivojlanishi, tilning yangi so'zlar bilan boyishi evaziga bo'lishi mumkin. Ularning davr taqozosiga va talabiga ko'ra qo'llanishi tilda paydo bo'layotgan yangi so'zlarga bevosita daxldordir.

Aynan shu o'rinda bizda o'z-o'zidan savol paydo bo'lishi tayin: o'lchov so'zlar o'zi nima, o'lchov so'zlar paradigmasi qanday hosil bo'ladi, ularni hosil qilishdagi asosiy unsur qanday... Keling, ularning har biriga birma-bir to'xtalamiz.

O'lchov so'zlar tilshunosligimizda hisob so'zlar deb ham yuritiladi. O'lchov so'z bu sanaluvchi miqdor va sanalayotgan obyekt va subyekt o'rtasida qo'llaniluvchi miqdor anglatuvchi so'z bo`lib, uni quyidagi qolip asosida ko'rib chiqishimiz mumkin:

O'lchov so'zlarning qo'llanilish o'rni, qolip(1-chizma).



Demak, yuqorida qayd etganimizdek, o'lchov so'zlarning o'rni sanalmish va miqdor anglatuvchi so'zlar oralig'ida ekan. Ushbu qolip asosida ushbu tahliliy misolni ko'rib chiqsak: bir tup olma.

- I. bir – miqdor anglatuvchi so'z;
- II. tup – o'lchov so'z;
- III. olma – sanalayotgan predmet.

O'lchov so'zlarning nutqda voqelanishining aynan pragmatika sohasida o'rganilishi ham bevosita unga nutqiy jihatdan yondashishni talab qiladi. O'lchov so'zlarning nutqiy ko'rinishi har bir individ og'zaki muloqotiga bog'loq jarayon hisoblanadi, ushbu holatni adabiy til yoki dialektik nuqtayi nazardan yoxud nutqiy vaziyat yuzasidan baholash bevosita shaxs tafakkuriga oid ekanligi bilan farqlanadi.

Adabiy til nuqtayi nazardan o'lchov so'zlar pragmatikasi aynan ilmiy yoxud rasmiy uslub ichida namoyon bo`lib, bunda o'lchov so'zlarning ifodalanishi mutlaqo so'zlashuv stilidan yiroq bo'ladi, xususan, rasmiy uslubdan olingan ushbu parchaga e'tibor bering:

I. Bir ijtimoiy guruhda ishtirok etuvchi fuqarolar soni o'n nafarni tashkil qiladi.

Ushbu gapda qo'llanilgan "nafar" so'zi adabiy til meyorlariga muvofiq ravishda qo'llangan bo`lib, aynan ushbu gapning so'zlashuv nutq doirasida ham ko'rib chiqsak:

II. Bir ijtimoiy guruhda ishtirok etuvchi fuqarolar soni o'ntani tashkil qiladi.

So'zlashuv uslubida bu "-ta" bilan mutanosiblik hosil qildi.

Dialektik nuqtayi nazardan ham o'lchov so'zleri shevaga xos yoki bo'lmasa, adabiy til qoidalariiga muvofiq keluvchi bo'lishi mumkin, sheva munosabatlarida ba'zan shunday holatlar kuzatiladiki, chetdan o'zlashgan so'z bevosita sheva elementi sifatida qo'llaniladi, e'tibor bering:

III. Magazindan 10 karobka shirinlik oldim(dialektik nutqqa xos);



IV. Do`kondan 10 quti shirinlik xarid qildim.

Yuqorida keltirilgan gaplarda “karobka” va “shirinlik” so`zлari o`zaro nutqiy qo`llanilishi jihatidan qarama-qarshilikni hosil qilib, so`zlashuv nutqining o`ziga xos jihatlarini dialektik nuqtayi nazardan yoritib bermoqda.

Shu o`rinda aytish kerakki, o`lchov so`zlar pragmatikasiga doir atamalar og`zaki nutqda qo`llanilganda, bevosita fonetik o`zgarishlarga ham yuz tutishi mumkin, misol uchun “tup” so`zining “tip” yoki “tub” shaklda talaffuz qilinish holatlari uchrab turadi:

V. Bog`dagi bir tip olma bu yil mevaga kirdi.

Ushbu gap ham bevosita dialektik yondashuvning bir ko`rinishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, o`lchov so`zlar pragmatikasining yana bir xususiyati shundan iboratki, ularning iste`molda yoki iste`molda emasligiga ko`ra quyidagi turlari kuzatiladi.

I. tarixiy: qadoq, tanob, jon, taxta, enlik, so`lkavoy, tosh, pud, yumaloq, savjin, gaz ...

II. zamonaviy: bit, bayt, terabayt, kilovatt, pachka, gradus, kubometr, nusxa, varaq ...

Yuqorida qayd etilgan o`lchov so`zlardan tarixiylari hozirda deyarli qo`llanmas-da, biroq ularning nutqda uchrab turish holatlari ham kuzatiladi.

Shuni ham ta`kidlash joizki, o`zbek tilshunosligida qo`llanilayotgan hisob so`zlar va boshqa tillarda foydalanilayotgan o`lchov so`zлari nutqda nima maqsadda ishlatilayotganiga ko`ra farqlanadi, xususan, yapon tilshunosligida qayd etilishicha, ularning nutqidagi o`lchov so`zлari xalqning kundalik turmush faoliyati bilan bevosita bog`liq ekan. Ya`ni ular kundalik faoliyatlarida olib boradigan mehnat turiga qara, o`lchov so`zlardan foydalanishar ekan. Rus tilshunosligida esa hisob so`zlarga nisbatan “so`zlarning klassifikatori” termini ishlatilishi ham rus tilshunosligining o`ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilshunosligida esa hisob so`zlar sifatida, asosan, sonlardan foydalaniladi va ular miqdor (asosiy sonlar), ketma-ketlik (tartib sonlar), chastota (bir, ikki marta) va qism (kasr) kabi munosabatlarni ifodalashi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash joizki, hisob so`zlarning nutqda aks etishi bevosita nutq ko`lamiga bog`liq bo`lib, tilda yangi so`zlar – neologizmlar – ortib borgani sari hisob so`zlardan foydalanish ham shunga muvofiq darajada bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. N. Juft so`zlarda son kategoriyasi (Turkiy tillar materiallari asosida). – Samarqand universitetining asarlari. 227 – son, 1971.-B...25-27....
2. Nizomiddinova S. Sonning numerativ so`zlar bilan qo`llanishi. «O`zbek tili va adabiyoti», 1957, 2-son. -B...14-17....
3. Nizomiddinova S. Hozirgi o`zbek tilida son., Toshkent, 1963 .-B...47-50....
4. Кўчқортөев И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида// ТошҶУ илмий асарлари. –Тошкент, 1969. 359-чиқиши. -84-92-б.
5. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. НДА. Фарғона, 2004. .-B.75
6. Ҳамдамов П. Ўзбек тилида нумеративлар .- Тошкент:- Фан, 1983. .-B.65-
www.wikipedia.org
www.ziyouz.com
www.hozir.org
www.google.com



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARINI
ANIQLASHDA TRANSFORMATSIYA USULINING MUHIM AHAMIYATI

Bobamuradova Sitora Eshboy qizi

O'zDJTU 2-bosqish magistri

+998992669529

sitora.bobomurodo@gmail.com

Annotasiya: Maqolada frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy aspektida analiz qilindi. Shuningdek, ularning yasalishi, aniqrog'i, xosil bo'lishi transformatsion usulda kuzatildi hamda shu birliklarning salbiy hissiyotga bo'lgan munosabati ham o'rganildi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, transformatsion metod, semantika, konseptual analiz, ekspressiv, konsept.

Annotation: The article analyzes the lexical-semantic features of phraseological units in a comparative aspect. Their formation, more precisely, their formation, was also observed in a transformational way, and the attitude of these units to negative emotions was studied.

Keywords: phraseology, phraseological units, transformational method, semantics, conceptual analysis, expressive, concept.

Hozirgi lisoniy ma'nnaviyatimizda hamda nutqiy ma'daniyatimizda, ayniqsa, nutq odobi masalasida faollik ko'rsatayotgan, xalqimiz o'rtasida keng qo'llaniladigan, tilimiz boyligini o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan frazeologizmlar, ya'ni serma'no xalq iboralari ana shunday ma'nnaviy birliklaridandir. Ular shaxs nutqi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bunday lisoniy birliklar har qanday tilning lug'at qatlamlaridan mustahkam o'rin olgan.

Frazeologik birliklar ta'sirchan vosita sifatida nutqni bezovchi lisoniy birlik hisoblanadi. Jamiyatdagi har bir shaxs ulardan ko'p va xo'b foydalanadi, biroq ularning ba'zi jihatlari hali ilmiy izlanish, tadqiqot ob'yekti bo'lmagan, jumladan, ularning salbiy ma'noni ifodalashi masalasidir. To'g'ri, iboralarda (so'zlarda ham) ham ijobiy, ham salbiy ma'noning ifodalaniishi bilan bog'liq ko'pgina ishlar mavjud. Biroq, salbiy hissiyotning ifodalaniishi darajasi alohida ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy jihatdan o'rganilmagan.

Struktural tilshunoslik metodlari "oиласига" – guruhiga tegishli bo'lgan transformatsion tahlil metodi, ayniqsa, sintaktik konstruktsiyalar – nutq birliklari tadqiqida faol qo'llanishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Frazeologik birliklarning til va nutq sathidagi semantik va sintaktik konstruktsiyasi masalasini ham transformatsion usul asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bilamizki, so'zning ma'no strukturasini tashkil qiluvchi komponentlar turli ilmiy izlanishlar jarayonida aniqlanadi.

Ma'no aloqadorligi haqida kontekstual analiz xulosasidan kelib chiqqan holda bular to'g'risidagi xulosalar qilish mumkinligini N. Shaykovich ta'kidlab, shunday deb yozadi: «So'zlarning semantik aloqasi, avvalo, matnda ma'lum bo'ladi. Shundagina so'zlarning statistik korrelyatsiyasini o'rganib, semantik aloqadorlik xususida xulosalar qilish mumkin». [M.N.Shaykovich, 1998: 30].

Kontekstual analiz ikki turda bo'ladi. U bir tomondan sintaktik aloqadorlikni ifodalaydi, ikkinchi tomondan semantik aloqadorlikni ko'rsatadi. Biroq, kontekstual bog'langan so'zlar semantik jihatdan aloqador bo'lmasligi ham mumkin, chunki ma'no aloqadorligi har doim sintaktik analizni talab qiladi. Agarda so'zlarning semantik aloqasini aniqlasak, ulardagи sintaktik aloqadorlikni ham kuzatishimiz mumkin. Zero, o'rganayotgan so'zlar guruhlari nafaqat so'zlarni semantik jihatdan, balki semantik bir-biridan uzoq bo'lgan so'zlarni ham birlashtiradi. Demak, ushbu maqolamizda aloqadorlik haqida ba'zi mulohazalarni aytib o'tish kerak bo'ladi.

Dastlab, so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqadorlikning xarakter va shaxsini aniqlash mumkin. Bu jarayonda yana bir shartga rioya qilishimiz lozim. Aytmoqchimizki, so'zlar parralel sintaktik qurilishga ega bo'lishi va bitta rodga mansub bo'laklar bo'lishi kerak. Bu yerda endi u yoki bu ibora belgilangani haqida savol tug'iladi. Har qanday ibora agar u sintaktik qoidalarga asoslanib tuzilgan va aniq ma'noga ega bo'lsa, albatta.

Ma'lumki, frazeologiya olam lisoniy manzarasining bir fragmenti (bo'lagi). FB (frazeologik birliklar) vositasida til sub'ektining ob'ektga bo'lgan sub'ektiv munosabatini ifodalaydi, borliqqa baho beradi, insonning emotsional holatini ochib beradi, insonning tashqi ta'sirga har xil psixologik



reaktsiyalarini ifodalaydi. Shu sababli frazeologiya (boshqa til vositalari-leksik va b. orqali) «inson axborotni sistema sifatida qayta ishlashni, hulq-atvorini tasvirlash va tushuntirishni, ichki kechinmalarini ifodalashni o’rganadi» [V.A.Maslova, 2007, 6 b].

Frazeologiya til birliklari sifatida o’z ma’nolari bilan xalq donishmandligi va orzu-istiklarini, madaniy an’analarni mif va rivoyatlarni, diniy e’tiqod va afsonalarni, tarixiy voqealarni, shuningdek, «pragmatik elementlarni»- emotsiyalarni, emotsiyalarni, sub’ektiv baholashlarni, hamsuhbatga ta’sir etish usullarini, borliqning obrazli, ekspressiv reprezentatsiyasini aks ettiradi. Bu esa FBlarni sof lingvistik hodisa ekanligini ko’rsatadi [A.E.Mamatov, 2011, 188 b].

Keyingi davrlarda kontseptual lingvistika frazeologik tadqiqotlarning kuchayishiga ta’sir o’tkazdi. Kontsept tushunchasi shundan kelib chiqadiki, «u kishi ongidagi madaniyatning qaymog’i, uning yordamida madaniyat inson mental olamiga kirib keladi, ular so’zda ifodalangan tasavvur, tushuncha, bilim, assotsiatsiyalarning bir parchasi. Ular emotsiya, simpatiya va antipatiya, ba’zan kelishmovchiliklar predmetlaridir» [Yu.S.Stepanov, 2004, 49 b].

Emotsionallik va ekspressivlikning semantik ahamiyati masalasi dolzarb masalalardandir, uning hal qilinishi, shubhasiz, so’zning leksik ma’nosini va FB ma’nosini yechishning fundamental masalalarini chuqurroq o’rganishga yordam beradi. Mazkur masalalarni o’rganish shu sababli dolzarbki, ular FB mohiyatini, semantikaning o’ziga xosligini, turg’un birikmalarni tashkil qilish mexanizmlarini, frazeologiyani yaratish jarayonlarini, frazeologik materiallarni o’rganish metodlarini ishlab chiqish va izlashga, turg’un birikmalarni frazeologik tahlil etishga, matnda va lug’atda ularni adekvat sharhlashga yo’l ochib bergen bo’lardi.

Tildagi ekspressiv ifodalilikning, tasviriylikning kuchaytirilishi, uning ta’sir kuchining orttirilishi bo’lib, barcha til sohalarida: fonetikada, grammatikada, leksika va so’z yasalishida ham kuzatiladi. Yangi so’zlarni hosil qilish nominativ maqsadlarni ko’zlaydi, ko’pgina hollarda ekspressiv ifodalash maqsadida tanlanadi, chunki «ekspressivlik gapni yana ham tushunariroq, ta’siriroq qilish istagida bo’ladi» [A.V. Kunin, 1996: 380].

Ma’lumki, so’z yasashni tashkil etishning asosiy birligi so’z yasalish modeli hisoblanadi. U o’zining morfologik va semantik strukturasi bilan ko’pgina hollarda ekspressivlikni ifodalaydi, ya’ni ushbu model asosida hosil qilingan so’zlar ancha ifodali, ular «yuqori intensivlikka» ega [I.V.Arnl’d, 2008, 62 b], ushbu sabab axborotni qabul qiluvchi kishi diqqatini o’ziga jalb etadi. Ammo barcha modellar ham ekspressiv potentsialga ega emas, chunki “o’zingni bos”, “og’zingga qara”, “bilib-bilmay gapirma” kabi Fblar ma’nosini ancha dominantaga ko’rinishga yaqinlashib qolgan. Qayd etish kerakki, o’ziga xos nutqiy kontekstda barcha modellar, aniqrog’i, u yoki bu model asosida hosil qilingan so’zlar ekspressivlikni ifodalash vositasi bo’lishi mumkin [Yu.S.Stepanov, 2004, 3-4 b].

Tildagi obratzlilik- murakkab lingvistik ob’ekt. I.V. Arnol’d yozadi: «Yorqin obratz bir-biridan uzoq bo’lgan predmetlar orasidagi o’xshashlikni topish asosida paydo bo’ladi. Predmetlar yetarli darajada bir-biridan olis bo’lishi kerak, ularni qiyoslash kutilmagan bo’lishi, o’ziga diqqatni tortishi zarur, farqlanish belgilari o’xshashlikni bo’rttirib ko’rsatib turishi kerak» [V. Arnol’d, 2008, 74 b].

Bir-biriga semantik jihatdan yaqin bo’lgan so’zlarni aniqlash FBlarning muhim shartidir. So’zlarning gapdagagi semantik aloqadorligini aniqlash uchun bor material ustida belgilangan operatsiyalarini amalga oshirish kerak bo’ladi. Ushbu operatsiyalar so’zlarni guruhashda ob’ektiv asos bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, olingan material transformatsiya - nominilizatsiya nuqtai-nazaridan o’rganilishi lozim. Masalan, ingliz tilidagi (to feel) sezmoq, his qilmoq fe’llari orqali quyidagi fikrlarni ko’rib chiqishimiz lozim.

VI - to feel N1

Buning natijasida biz katta so’z guruhaliga ega bo’lamiz, ya’ni bu so’zlar hate, loathe, detest, abhor, abominate fe’llariga ma’no jihatidan yaqin hisoblanadi. Ushbu guruh so’zlari tuyg’ularni ifodalash, holat ma’nosini anglatishi mumkin. Ushbu so’z guruhalari o’rtasida (so’zlar) turli xil semantik aloqadorlik mavjud. Ushbu guruh orasidan biz juda yaqin aloqadorlikka ega kichik-kichik guruhalarni topishimiz mumkinki, ular umumiylar ma’no ko’rsatkichlariga ega. Umumiylar ma’no ko’rsatkichi har qanday guruhalarga xos bo’lib, «nafratlanmoq» fe’lining komponentlariga o’xshab, uning ma’no strukturasi tarkibiga kiradi. Guruhalarga ajratish printsipi turli bo’lishi mumkin. Buning uchun ob’ektiv kriterik hamda formal kriterik muhim rol o’ynaydi. Ta’kidlanganidek, olingan so’zlar tahlil qilinayotgan fe’llar guruhi bilan semantik bog’liq bo’lishi kerak.

Ushbu aloqadorlik ma’no yaqinligi va qarama-qarshi munosabatlarda ko’rinadi, shu bois biz



birinchi bosqichda ikki xil so’z guruhlarini ajratamiz. Buning uchun biz diagnostik transformatsiya usulini qo’llaymiz. Olingan ikki guruh so’zlari ustida turli amallarni bajarishda davom etamiz. Ularga birlik kriteriyalar biriktiriladi va bu asosda turli guruhlar yasaladi. Ushbu kriteriyalar:

1. So’zlarning 5.4.3.2.1 fe’llari bilan bog’lanishi va buning natijasida biz bir qancha guruhchalar hosil qilamizki, ularning ba’zilari keyingi tadqiqotlarni talab qilmaydi. Ammo o’rganishni talab qildigan guruhchalarga chastota kriteriyasi qo’llanadi, buning uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. A, AA ko’rinishlariga ega so’zlar bir guruhda birlashtiriladi;
2. 49- 20 chastotali so’zlar bir guruhda birlashtiriladi;
3. 19-1 chastotali so’zlar bir guruhda birlashtiriladi.

Olingan guruhchalar ichida juda kichiklari ham bo’lishi mumkin. O’rganiladigan guruhlar esa transformatsion shakllanishiga ega bo’ladi. Shunday qilib I bosqichda semantik yaqin va qarama-qarshi munosabatdagi so’zlarni aniqladik. Barcha tahlil qilinayotgan materialni quyidagicha transformatsiya qilish mumkin.

Hate, fear - hate yet fear

Hate, love - hate even while love

Transformatsiya qilinadigan so’z guruhlari:

hate yet... ; hate even while

Tahlil qilinayotgan fe’llar bilan qarama-qarshi ma’noli so’zlarni tashkil qiladi. Keyingi guruh ularga semantik yaqin so’z guruhlarini hosil qiladi:

Hate, despise - hate yet despise

Hate, admire- hate yet admire

Keyingi bosqichi ikki guruh orasidagi guruhchalarni ajratishdir.

Ushbu holatda fe’llar 5.4.3.2.1 fe’llari bilan ifodalanali.

5	4	3	2	1
Despise	fear dread		envy, distrust, dislike, resent, revolt	reject, blame, disown, ignore

Jadvalda ko’rinadiki, ikki xil fe’l va keyingi fe’lga xos tasnif lozim bo’ladi. Keyingi bosqichda biz qabul qilingan qoidalar orqali uch xil chastota gradatsiyalarni qo’llaymiz.

1. A, AA ko’rinishlariga ega so’zlar bir guruhda birlashtiriladi.

2. 49 - 20 chastotali so’zlar bir guruhda birlashtiriladi.

3. 19-1 chastotali so’zlar bir guruhda birlashtiriladi.

Envy - bir.million so’zda 27 marta

Distrust - bir million so’zda 10 marta

Dislike - bir million so’zda 23 marta

Resent - bir million so’zda 22 marta

Revolt - bir million so’zda 16 marta

Chastotali kriteriyasini qo’llash natijasida biz ikki xil guruhga ega bo’lamiz.

envy distrust

dislike resent

revolt

Yuqoridagi operatsiya natijasida hosil qilingan birinchi guruhni

envy

dislike

revolt

shuningdek, yana ham guruhchalarga bo’lishimiz mumkin bo’ladi, biroq bu bosqichdagি natijalarni o’zimizning kattaroq tadqiqotimizda davom ettiramiz ma’qul.

Xulosa sifatida ta’kidlashimiz kerakki, barcha tillarda bo’lgani kabi o’zbek tilida ham (irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq kabi), ingliz tilida ham salbiy hissiyotni

ifodalovchi iboralar tarkibida turli salbiy ma’noli so’zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan : ingliz tilidagi hate, loathe, detest, abhor, abominate fe’llariga ma’no jihatidan yaqin hisoblanadi. Ushbu guruh so’zlari tuyg’ularni ifodalash, holat ma’nosini anglatishi mumkin. Ushbu so’zning leksik-semantik guruhlari o’rtasida (so’zlar) turli xil semantik aloqadorlik mavjudligi kuzatiladi. Ushbu guruh orasidan biz juda yaqin aloqadorlikka ega kichik-kichik guruhchalarni ham topishimiz mumkin. Ammo ular umumiy ma’no ko’rsatkichlariga ega. Umumiy ma’no ko’rsatkichi har



qanday guruhchalarga xos bo'lib, «nafratlanmoq» fe'lining komponentlariga o'xshab, uning ma'no strukturasi tarkibiga kiradi. Guruhchalarga ajratish printsipi turli bo'lishi mumkin. Bunda ob'ektiv kriterik hamda formal kriterik mezonlari muhim rol o'yнaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: Учебное пособие. – Мн.: ТетраСистемс, 2004.256 с.
2. Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик.- Фарғона, 2007.- 190 б.
3. Anne Thwaite. Holliday's View of child Language Learning: Has it been Misinterpreted? // Australian Journal of Teacher Education, 44(5), 2019, P. 159-172.
4. Маматов А. Фрезеологик бирликларнинг нормалашуви. Тошкент.- 1993.



SÚWRETLEW ÓNERI TERMINLERINIÝ ETIMOLOGIYALÍQ ANALIZI

Seytmuratova Arıwxan Ajiniyazovna,
Berdaq atındağı QMU 2-kurs magistrantı
Telefon:+998949003355
ariu_seytmuratova@mail.ru

ANNOTACIYA: Oqıwshılar súwretlew óneri sırların úyreniw procesinde júdá kóp terminler hám atamalarǵa dus keledi. Bunday atamalardıň tiykarǵı mánisin ádebiyatlardan tabiw biraz qıyınlıqlar tuwdıradı. Biz bul maqalamızda usınday terminlerdiň mánisin hám qaysı tillerden kirip kelgenligin ashıp beriwe háreket ettik.

GILT SÓZLER: Súwretlew óneri, termin, etimologiya, akvarel, animalist, grafika, natyumort, siluet, avtoportret, monument, interer.

Súwretlew ónerin úyreniw procesinde basqa tillerden ózlesken terminlerdi oqıwshılarǵa túsındırıw áhmiyetli bolıp esaplanadı. Súwretlew óneri tarawında qollanılatuǵın kóphsilik terminler chet tillerinen rus tiline, rus tili arqalı ózbek hám qaraqalpaq tillerine kirip kelgenligin kóriwimizge boladı. Sonlıqtan da bul terminlerdiň mánisin oqıwshılar da, studentler de erkin túrde ózlestire almaydı. Sol sebepli sabaq ótiw barısında terminlerdiň mánisin, qaysı tilden kirip kelgenligin analizlew tiykarǵı waziypa bolıp esaplanadı. Oqıtıwshı súwretlew ónerine tiyisli bolǵan terminlerdiň qaysı tillerden kirip kelgenligin jaqsı ózlestirip alsa, oqıwshılarǵa óz túsiniklerin beriwe qıynalmayıdı.

Hár bir termin belgili bir túsinikti ańlatadı. Terminlerdiň etimologiyalıq analizin beriwe súwretlew óneri tarawın tereň túsiniwge, ondağı túsiniklerdi ózlestiriwge járdem beredi.

Etimologiya sózi grekshe “etimon” – tuwrı, sózdiň tiykarǵı mánisi, “logos” ilim degen sózlerden kelip shıqqan. Demek, terminlerdiň etimologiyalıq analizi tómendegilerdi óz ishine aladı:

- terminniň mánisin, jazılıwin túsındırıp beriwe;
- sózdiň payda bolıwı haqqındaǵı maǵlıwmat;
- terminniň shet tilindegi hám qaraqalpaq tilindegi mánisin ashıp beriwden ibarat.

Súwretlew óneri terminleriniň etimologiyalıq analizi tómendegishe bolǵanı maqsetke muwapiq boladı.

Akvarel- francuzsha “aquarelle”, latinsha “aqua” suw sózinen kelip shıqqan. Suw menen suyıltırıp isleytuǵın boyawlar mánisin ańlatadı hám sol boyaw menen soǵılǵan súwretlerdi “akvarel” dep atayız.

Animalist –latinsha “animal” haywan sózinen alıńǵan bolıp haywan hám quşlardıň súwretin soǵıw menen shuǵıllanatuǵın súwretshi.

Vitraj - francuzsha “vitrage” sózinen alıńǵan bolıp, “tereze shiyshası” degen mánini bildiredi. Bul túrli reńdegi shiysha sınaqları menen terezege naǵıs yáki súwret salıw.

Gravyura – francuzsha “graver” sózinen alıńǵan bolıp, qanday da bir buymıǵa oyıp naǵıs soǵıw mánisin bildiredi.

Grafika- latinsha “grapho” sózinen alıńǵan bolıp “Jazaman, súwret salaman” degen mánini bildiredi. Bul ápiwayı qara qálemde qandayda bir buymıńı qaǵaz betine túシリgen súwreti.

Natyumort- francuzsha “jansız tábiyat” degen mánini bildiredi. Natyumort kúndelikli turmıstaǵı hár túrli buyımlar, palız ónimleri hám miyweler, haywan hám quşlar súwretlengen kartina.

Siluet- francuzsha sóz bolıp, qandayda bir buymıǵa jaqtılıq túシリlgendegi sol buyımnıń sayasınıň súwreti. Bul atama Francuz Eten de Siluet degen adamnıň atınan kelip shıqqan.

Marinist – latinsha “teñiz” sózinen alıńǵan. Ol teñiz quşların súwretlewhı súwretshi.

Avtoportret – grekshe “autos”- óz, francuzsha “portrait”- súwret sózlerinen alıńǵan. Bul portret janrıniň bir túri bolıp, bunda súwretshi ózin –ózi súwretleydi.

Interer- francuzsha “ishki” degen mánini bildiredi. Bul úydiń ishki kórinişi.

Monument- latinsha “monumentum”-estelik sózinen alıńǵan. Qanday da bir tariyxıw waqıya yaki belgili shaxslar ushın arnalıp soǵılǵan estelik, arxitektura yaki müsinsilik döretpesi.

Súwretlew óneri tarawına tán terminler hám atamalardı biz rus tilinen awdarmalanǵan ádebiyatlardan, metodikalıq qollanbalardan alıwǵa háreket qılamız. Sońǵı dáwirlerde baspadan shıǵıp atrıǵan ádebiatlarda qollanılgan terminlerdiň analizi sonı kórsetedı, qaraqalpaq tilindegi súwretlew óneri terminlerin qollanıwda hár qıylılıqlar júzege kelmekte. Bul bolsa terminlerdiň



mánisin túsiniwde qiyinshılıqlardı júzege keltiredi hám oqıw procesiniá sapasına keri tásirin tiygizedi.

Biz joqaridaǵı misallar tiykarında súwretlew óneri tarawında eń kóp qollanılatuǵın terminlerdiń ayrimalarınıń etimologiyasına toqtap óttik. Bul terminlerdi rus tili arqalı qaraqalpaq tiline tuwridantuwrı awdariw maqsetke muwapiq. Sebebi, terminlerdiń barlıǵın ózimizdiń tilimizge maslastırıp awdariw, kópshilik jaǵdayda túsiniksızlıklerdi keltirip shıǵaradı.

Paydalanylǵan ádebiyatlar:

1. Кратки и словарь терминов изобразительного искусства здательство « советский художник москва — 1961
2. S.Aburasulov. Tasviriy san`at o`qitish metodikasi T.: 2012 y.
3. www.arxiv.uz



ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФИТОНИМОВ В РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКАХ.

Ягафарова Назиля Рафаиловна
магистрант Гулистанского
Государственного Университета
Телефон: +998911000072
Privett075@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Исследование посвящено изучению фитонимов в лингвокультурном аспекте и представляет собой национальную картину мира, которая отражается в семантике языковых единиц через систему значений и ассоциаций слова с особыми культурно-специфическими значениями.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: фитонимы, лингвокультурология, семантическая лексика, бытовые артефакты.

В настоящее время в языковой практике Узбекистана большое внимание уделяется исследованию фитонимов. Это стимулирует развитие новых направлений в изучении языков как в теоретическом, практическом, так и в лингвокультурном аспектах.

Лингвокультурологию можно рассматривать как науку о взаимодействии разных языковых картин мира, в которых отражается восприятие окружающего мира, национально-культурные различия и менталитет разных народов. В последние годы большое значение придается фитонимам. Лингвокультурологическое изучение фитонимов разноструктурных языков становится весьма актуальной темой научных исследований. Фитонимы как один из видов семантической лексики, воплощая в себе определенные характеристики растений, отражают духовный мир людей. Исследование фитонимов в лингвокультурологическом аспекте позволяет получить определенное представление о многообразных языковых явлениях того или иного народа, а также проследить, как внеязыковая действительность преломляется в языке.

Особое внимание исследователей привлекают при этом мотивационно-номинативные поля, экспрессивно отражающие национально-культурные или универсальные особенности изучаемых языков: религиозно-мифологическое происхождение названий растений, сходство с бытовыми предметами или частями тела (человека, животного и т. д.).

В английском языке существуют фитонимы с элементом devil или devil's, интерпретирующие негативные понятия, которые часто встречаются в названиях растений с отрицательными свойствами: ядовитое, сорное, колючее, горькое и т. д. Фитоним devil's apple → букв. «чёртова яблоко» или devil's candle → букв. «чёртова свеча», «мандрогора», «дурман обыкновенный». Своебразность такого наименования в мифопоэтических представлениях объясняется наличием у этого растения определенных снотворных свойств, а также сходством его корня с человеческим телом. Поэтому Пифагор называл мандрагору «человекоподобным растением». Распространено поверье, что ночью мандрагора светится, в связи с чем ее называют «чёртова свеча», в средние века мандрагора в ряде европейских традиций именовалась «цветком ведьмы».¹ На подобие таких примеры можно привести и в русском языке. Наименование чертополох уже само по себе отражает те народные представления, которые связаны с растением. Эта семантическая модель реализуется на различном лексическом материале: чертогон, чертопугальник. В полном соответствии с названием, чертополох использовали для отпугивания черта и другой нечистой силы. В древности знахарки применяли чертополох от шутов и от нечистого, его клали в углы избы или под подушку. Чертогон также крестьяне клали над дверями, где часто ходят: например, при входе в избу, подобно тому, как кладут тут косу или деготь в бутылке или просто мажут двери дегтем – будто это предохраняет от поветрий. Другое применение чертополоха – лечение от испуга. И здесь название растения перекликается с целью его применения, точнее, с недугом, который оно призвано излечить: чертополох – переполох. Как именно использовалось растение, указывается не всегда, особенно многочисленны сведения об

1 <http://ec-dejavu.ru/m/Mandragora.html>.



окуривании больного чертополохом.

Такие фитонимы встречаются в узбекском языке: исириқ, хазор-испанд → букв. «лекарство от тысячи болезней» – «гармала обыкновенная», «могильник», который соприкасается с многими традициями и религиозными обрядами, связанными с изгнанием злых духов. Еще в «Авесте» (VII–V века до н. э.), древнейшей священной книге зороастризма, гармала описывается как успокаивающее и очистительное средство.¹ Дервиши – приверженцы мусульманского мистического братства суфииев ритуально использовали семена гармалы для изменения сознания и достижения состояния религиозного экстаза. И сегодня как дань традиции гармала курится на празднике «Навруз», а ее семена разбрасывают на пылающие угли на свадьбах, чтобы отогнать злые силы и дурной глаз. Считается, что его дым способен рассеивать множество болезней. Великий ученый-энциклопедист Абу Али ибн Сина в «Алканоне» писал, что гармала хороша при болях в суставах и при разных воспалениях. С давних пор гармалу используют как оберег: от дурного глаза пучок травы подвешивают при входе в дом. Когда в доме появляется новорожденный, перед тем как внести его в комнату, все помещение окуривают дымом гармалы и пучок травы подвешивают на правой стороне дверного косяка внутри комнаты, кладут под подстилку в колыбель. Торговцы на базаре окуривают свои прилавки гармалой, считая, что это приносит удачу в торговле, защищает от сглаза. Дымом сжигаемой травы окуривают помещение, где лежат инфекционные больные, а также лечат головные боли. Но стоит отметить, что хазор-испанд – это заимствованное из персидского языка словосочетание. Мотивация фитонима исириқ → узб. ис «запах, дым» + рик – суффикс, образующий фитоним, скорее, связана с использованием этого растения для получения целебного дыма, а не с мифологическим персонажем.

Использование названий артефактов в фитонимике в каждом языке проявляется по-разному. Для русской фитонимики более характерны те артефакты, которые относятся к бытовым предметам, используемым в повседневной жизни: пастушья сумка, венерин башмачок, волчье сито, гребешок, крест-трава, метла, юбочка, царская свеча и т. д.

В узбекском языке, как и в русском, часто встречаются фитонимы с бытовыми артефактами, широко используемыми в повседневной жизни узбеков. Эти предметы быта в основном ассоциируются с жизнедеятельностью кочевых племен, занимающихся скотоводством, являющимся неотъемлемой частью узбекской этнокультуры: чўпонтелпак → букв. «пастушья шапка» → «мелкоголовник пластинчатый»; кампирчопон → букв. «бабушкина шуба» → «триходесма седая»; қўнғизтарок → букв. «расческа жука» → «ворсянка»; келин супирги → букв. «венник невесты» → «двучленник пузырчатый».

Сходство растений с частями тела человека или животного является мощным мотиватором в наименованиях тысяч растений. Это объясняется тем, что мир людей, животных и растений тесно связан между собой. Именно поэтому в лексике рассматриваемых языков есть множество фитонимов, в составе которых имеются компоненты, обозначающие части тела человека или животного, например: русс. анютины глазки – жёлтые цветочки с чёрной серединкой в центре. Очевидно, здесь есть сходство с глазами девушки, кстати, в английском языке наименование этого цветка также ассоциируется с глазами девушки – black-eyed Susan → букв. «черноглазая Сюзан»; вороний глаз – травянистое растение с длинным ползучим корневищем и прямым стеблем. В центре один цветок, из которого образуется плод в виде большой чёрной ягоды, напоминающей вороний глаз; узб. тирноқ гул → букв. «ногтевой цветок» → «календула», лепестки цветка похожи на женские ногти; отқулоқ → букв. «лошадиное ухо» → «щавель конский», листья щавеля очень напоминают лошадиное ухо. Здесь играют важную роль культурологические факторы. При сравнении и сопоставлении фитонимов в русском и узбекском языках выявляется две группы культурологических факторов: универсальные и национально специфичные.

Универсальный культурологический фактор предполагает, что ассоциативный потенциал растения, обусловленный его ролью в фольклорных, религиозных, литературных и других традициях, совпадает в различных культурах. Об универсальных факторах в полном смысле ассоциаций можно говорить лишь в случае их присутствия в неродственных культурах. В рассматриваемой нами семантической группе фитонимов можно говорить, только о значениях, характерных для европейских культур, поскольку наиболее активными

¹ <http://shkolazhizni.ru/archive/0/n-27231/>



источниками таких универсальных ассоциаций являются мифология и традиция античности. В русской культуре является символическое значение таких растений, как лавр «символ славы», кипарис «символ печали», мак «символ сна, забвения» и т. д. В национально специфичном культурологическом факторе встречаются значения, присущие исключительно одной из культур: русской или узбекской. Нередки случаи, когда ассоциативные компоненты, обусловленные культурной традицией, частично пересекаются в двух языках, обладая, тем не менее, своей спецификой. Одним из наиболее ярких примеров такого слияния уникального и специфичного являются деревья.

Например, дуб занимает особое место в мифологии сопоставляемых культур: в славянской мифологии с ним преимущественно связаны предания о мировом дереве, он считался священным и связывался с именем Перуна, который добывал из него огонь. Само слово дуб первоначально заключало в себе общее понятие дерева. В русской мифологии дуб также считался мировым деревом и почитался даже в большей степени, чем в других европейских культурах. Сопоставление национально обусловленной символики дуба в современном сознании носителей двух культур показывает, что оно более ярко представлено в русском языке, что объясняется, большим влиянием античной традиции.

Ряд представлений, связанных с миром природы, у разных народов совпадает, например, миф о «мировом дереве», однако наблюдаются значительные расхождения в символическом переосмыслиннии растений. Одно и то же событие может сопровождаться выбором разных растений, например, приближение Пасхи у русских символизирует верба (Вербное воскресенье), берёза у русских считается «чистым» деревом, приносящим в дом здоровье, согласие, поэтому её ставят на Троицу.

Сюда относятся не только частные названия деревьев, но и общие понятия территорий, где растут деревья. Самым частотным названием в этой группе стал «дуб», «трава», «береза», «яблоня», «трава мурава», «корень», «цветок». Цветы отражают общепринятые смыслы о красоте, пробуждении жизни и весне, памяти о детстве, любви, быта. Травы символически обозначают родину и дом.

В узбекской традиции некоторые деревья тоже являются своеобразным символом силы, выносливости и целомудрия, но в этом случае, например, дуб заменяется чинаром – «платаном восточным», так как дуб не так широко распространён на территории Узбекистана. Чинар почитается в узбекских традициях как символ долголетия, мудрости и мужественности. Исходя из вышеуказанных примеров можно утверждать, что «предмет лингвокультурологии определяется как изучение и описание культурной семантики языковых знаков в их живом, синхронно действующем употреблении, отображающем культурно-национальную ментальность носителей языка».¹

Сравнительно-сопоставительный анализ разноструктурных языков с позиций лингвокультурологии предполагает сравнение особенностей и сходства лексико-семантических компонентов как явление, развивающееся во взаимодействии универсальных и национально специфичных факторов

Вышеизложенный материал показывает, что изучение фитонимов в лингвокультурном аспекте представляет национальную картину мира, которая отражается в семантике языковых единиц через систему значений и ассоциаций слова с особыми культурно-специфическими значениями.

Литература

1. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996. – 284 с.
2. Хошимхуджаева М.М. Особенности мотивировочных признаков номинации фитонимов в английском и русском языках//Замонавий тилшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Ташкент, 2014.
3. Хожимхужаева М.М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2018. – 54 с.



ЎЗБЕК ФОЛЬКЛОРИДА ХИЗР КҮМАКЧИ ОБРАЗ СИФАТИДА

Ахмедова Сарвиноз Ҳикматовна
Бухоро давлат университети таянч докторант
sarvi5335@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада күмакчи қаҳрамоннинг халқ оғзаки ижодида тутган ўрни ва бадиий-эстетик вазифалари таҳлил қилинган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: фольклор, эртак, достон, күмакчи образ, мифологик образ, генезис, Хизр.

Ўзбек афсона, эртак ва достонларида инсонларнинг ҳаётига ҳомийлик қилиш, ўрни келганда, йўл кўрсатиш, мушкулини осон қилиш ғояси илгари сурилганда, кўпинча дев, пари, аждар, Семурғ, аранглар, эранлар, Хизр, Эр Ҳубби, Илёс ва ҳоказо сингари образлар алоҳида эътиборни тортади. Улардан аксариятининг қадимий асослари “Авесто”га бориб тақалади.¹

Ибтидоий даврдаги диний эътиқодлар асосида келиб чиққан мифологик тушунчалардан бири – ота-боболар руҳининг ҳомийлигига, мададига ишониш билан бевосита боғлиқидир. Шунинг учун Хизр образи бевосита чилтан каби бошқа ҳомий руҳларга боғлаб талқин қилинади.

Ўзбек фольклорида Хизр образи борасида биринчилардан бўлиб М.Афзалов тўхталган. У Хизрнинг қадимги мифологик тасаввурлар билан боғлиқлигини, пир-ҳомийлар тўғрисидаги халқ қарашларидан ўсиб чиққанлигини айтиб ўтган.²

Хизр образи нафақат афсона ва эртак, балки достонлар сюжетида ҳам учрайди. Ш.Турдимов фикрича, Хизр ёз (кўклам) илохи, барча ўт-олов манбаи, тарихан ушбу образ қуёш маъбути ҳисобланган.³ “Гўрўғли” достонларида қаҳрамонга айнан Хизрнинг ҳомий сифатида келишининг туб асослари ҳам ана шу қўҳна тасаввурлар тизимининг меваси ҳисобланади. Достон ибтиdosида Гўрўғли қуёш маъбудининг ўғли саналган.

Ф.Нурманов Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини масаласини маҳсус тадқиқ қиласар экан, у билан боғлиқ халқ қарашларини умумлаштириб, атрофлича ёритишига ҳаракат қилган.⁴

Бир сўз билан айтганда, халқимизнинг исломга қадар бўлган мифологик қарашлари тизимида Хизрга энг юқори мақомдаги ўт, олов, қуёш билан боғлиқ, ёзни олиб келувчи, бутун табиатни, ҳаётни жонлантирувчи, уларга тириклик берувчи эзгу ҳомий руҳ сифатида сифинишган.

Умуман олганда, ислом динига эътиқод қилувчи туркий халқлар фольклорида кенг тарқалган Хизр образи мифологик ҳомий, мададкор руҳ, чол қиёфасидаги ғайриоддий күмакчи сифатида тасаввур қилинган бўлиб, ўзбек фольклоршунослигига бирмунча тадқиқ этилган. Натижада Хизр бошига мушкул савдо тушган кишиларга ҳомийлик қилувчи афсонавий халоскор, доно ва зукко маслаҳатчи, боқий ҳаёт сувини топиб ичганлиги учун абадий барҳаётликка эришган афсонавий қаҳрамон, шифобахш чашмалар кўзини очган ғайриоддий шахс, чўл ва саҳроларда ғойибдан пайдо бўлиб, қийин ахволда қолган йўловчиларга кўмак берувчи эзгулик тимсоли, дехқон даласига мўл ҳосил ва барака ато этувчи ҳосилдорлик рамзи, одамларни ҳамиша қўллаб-қувватлаб юрадиган Хизр номи “Куръони Карим”да ҳам тилга олинган, эзгу пир ёки азиз авлиёлардан бири сифатида таъриф ва тавсиф қилинган. Туркий халқлар фольклорида Хизр образининг қадимий асослари сув культи билан боғланади. Хизр образи ҳамиша мифологик ҳомий, мададкор руҳ, чол қиёфасидаги ғайриоддий күмакчи сифатида тасаввур қилинган. Халқимиз орасида Хизр эзгу

1 Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.11-12.

2 Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964. – Б.49.

3 Турдимов Ш.Г. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари: Филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Т., 2011.

4 Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 2007. – Б.7-22.



ҳомий сифатида қаралади. У ҳеч қачон ёвузлик қилмайди. Қайтага Хизр ҳамиша одамларга яхшилик қилувчи, адашган кишиларга йўл қўрсатувчи, булоқлар қўзини очиб, одамларга оби ҳаёт улашувчи, далаларга мўл ҳосил баҳш этувчи, ҳаёт сувини топиб ичганлиги учун абадий умр кечиравчи асосий персонаж сифатида берилади.

Таъкидлаганимиздек, жуда кўп афсона, эртак, достон сюжетида Хизр образига дуч келиш мумкин. Масалан, “Кулса–гул, йиғласа–дур” эртагида Хизрнинг бош қаҳрамонга ёрдамчи бўлиб келиши кузатилади. У эртак тугунида келиб, фарзандталаб инсонларга сехрли олма беради. Бу олмадан эса кўпдан кутилган фарзанд дунёга келади. Яна шу эртакда сув, нон эвазига икки кўзини беришга мажбур бўлган кулса гул, йиғласа дур сочиш хусусиятига эга ғаройиб қизнинг кўзларини кўк каптар жойига қўйиб беради. Маълумки, кўк каптар ўзбек халқ эртакларида пари тимсолида талқин этилади. Бу ўринда ҳам шунга ишора бор.

“Қирқ қуёв” эртагида чол кўринишидаги Хизр ҳозир бўлиб, эртак қаҳрамонларига йўл-йўриқ қўрсатади. Худди шу эртакда яна чумолилар подшосининг ҳомийлиги мотиви келтирилган. У эпик қаҳрамонга бир ҳовуч сомон бериб, шуни тутатганда ҳозир бўлишини айтади. Бу эртакда яна шерлар ҳам қаҳрамонга юнгидан бериб, истаган пайтида уни тутатса, ёрдамга келишини таъкидлашади.

“Махмуд ямоқчи” эртагида Хизр номига “бува” сўзи қўшилиб, Хизр бува номи билан келтирилган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, эпик кўмакчилар образи барча халқлар фольклорида учрайди ва улар халқ маданияти, тарихи, эътиқоди ва қарашлари билан боғлиқ бўлиб, фолклорда ўзига хос ўринга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.11-12.
2. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964. – Б.49.
3. Турдимов Ш.Г. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари: Филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Т., 2011
4. Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 2007. – Б.7-22.



JAHON TILSHUNOSLIGIDA LISON VA NUTQNING FARQLANISHI HAMDA
TILGA SISTEMA SIFATIDA YONDASHUV

Sharipov Fazliddin Galiyevich

Guliston davlat universiteti dotsenti,

Telefon: +998972787416

E-mail: fazliddindpr@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada til sathlari bilan jiddiy va puxta shug‘ullangan hind olimlari, qadimgi yunon tilshunoslari, xitoy madaniy taraqqiyoti, qadimgi rivojlangan davlatlar qatorida Arab xalifaligi hamda tilshunoslik nazariyasida asosiy ilmiy-tadqiqot olib borilgan yana bir davr borki, bu – Hind-Yevropa tillarini o‘rganish davridir.

Kalit so‘zlar: lison, nutq, dixotomiya, til, so‘z, grammatika, sistema, sinxron, diaxron.

Jahon tilshunosligi shu kungi taraqqiyot bosqichga yetib kelgunga qadar uzoq tarixiy davr, “o‘sish” davrini bosib o‘tdi. Til masalalariga oid qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug‘ullanish ilk bor Hindistonda – hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Bundan tashqari qadimgi yunonlar esa tilshunoslikni ikki: falsafiy va grammatik jihatdan davrlarga bo‘lib o‘rganganligi Geraklit hamda Demokrit va uning tarafdoirlari o‘z fikrlarini asoslab berishganligi bilan baholash mumkin. Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta’siri juda muhim bo‘lganligiga asrlar davomida yetib kelgan ilmiy asarlar guvohlik beradi.

Til masalalariga oid qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug‘ullanish ilk bor Hindistonda – hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ya’ni 15 asr oldin qadimgi hindlar so‘zlarning faqat ma’no tomonidangina emas, balki tovush tomonida ham o‘zgarishlarni bilgan. Bundan tashqari, hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular grek tilshunosligini ortda qoldirib, Guru tomonidan morfologiya: so‘zlar tasnifi (so‘z turkumlari), so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi, so‘z turkumlarni ot, fe’l, old ko‘makchi va yuklama kabi turlarga bo‘lib, so‘z tarkibini o‘zak, affiks va qo‘s Shimcha (turlovchi qo‘s Shimcha) tarzida o‘rgangan. Kelishik qo‘s Shimchalarni esa bosh kelishik, qaratqich kelishik, jo‘nalish kelishik, tushum kelishigi, qurol kelishigi, chiqish kelishigi va o‘rin payt kelishigi tarzida tahlil qilgan.

Qadimgi yunonlar esa tilshunoslikni ikki: falsafiy va grammatik jihatdan davrlarga bo‘lgan. Bu davrda so‘zlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar Geraklit, Demokrit va uning tarafdoirlari tomonidan asoslab berilgan.

Qadimgi Rim tilshunosligida esa Yuliy Tsezar, Terentsiy Varron, Mark Fabiy, Eliya Donata, Verriy Flakk, Pristsian kabi olimlar tilshunoslik sohasi bo‘yicha ham qalam tebratganlar. Rim tilshunoslari o‘sha davrda Yunon tilshunoslaridan farqli o‘laroq, grammatikaning alohida stilistikasini (uslubshunosligini) yaratdi. Undovlarni so‘z turkumiga kiritib, yunonlarga xos bo‘lgan artiklni chiqarib tashladilar hamda so‘z turkumlarini 8 turga bo‘linishini aytdilar[2. B.29].

Juda tez taraqqiy etayotgan Xitoy davlatini oladigan bo‘lsak, uning madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta’siri natijasida hind tilshunosligining ta’siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik–prosodemik hodisasi – intonatsiyaning to‘rtta turini, ko‘rinishini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lishgan. XVII-XIX asrlarda Xitoy tilshunosligida tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga oid ma’lumotlar ustida ish olib borilgan bo‘lib, tinqidiy matnshunoslik taraqqiy etdi. So‘z turkumlarni esa mustaqil va yordamchi sifatida tahlil qila boshladi.

Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlari bilan bog‘landi, ya’ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur’on tili bilan jonli arab tili o‘rtasida katta farqlanish yuzaga keladi. Arab olimlari Qur’oni tushunarli qilish, klassik arab tilini shevalar ta’siridan saqlab qolish maqsadida jiddiy ishlar olib bordi. Arab tilshunoslarining katta yutuqlaridan biri leksikografiyanı mukammal o‘rganganligi. Xillas, arab leksikografiyasida lug‘atlar mazmuniga ko‘ra 6 guruhga bo‘linishi asoslandi. Fonetika masalalari bo‘yicha esa, unli va undosh tovushlarni farqlay olishgan. Eng asosiysi arab tilshunoslari grammatikani juda jiddiy tarzda tahlil qilganlar va bu soha bo‘yicha juda katta yutuqlarga erishdi.

Yana bir narsaga alohida e’tibor berish lozimki, XVIII asrgacha til o‘zgarmas hodisa sifatida o‘rganilgan bo‘lib, shu asrdan boshlab Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monbaddo, Adam Smit, Pristli, Gerder kabi olimlar tomonida til o‘zgaruvchan, rivojlanuvchi hodisa ekanligi qo‘llab-



quvvatlandi.

Umuman, tillarni qiyosiy tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishga, tilshunoslikning alohida mustaqil fan sifatida qat’iy tan olinishiga zamin yaratdi desak xato bo‘lmaydi. Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo‘lib, o‘z oldiga qarindosh tillarini qiyoslash orqali o‘rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o‘zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarini ko‘rsatib berish, tushuntirish kabi vazifalarni qo‘yadi.

Tilshunoslik barcha jabhalarda, o‘sha hudud yoki mintaqaning milliy an’analariga xos tarzda o‘sha yerlik olimlar tomonidan o‘rganildi. Bunga Hind-Yevropa tillarini misol sifatida keltirish mumkin. Aynan shu davr tillari davri to‘rtga bo‘lingan bo‘lsa, bugungi davrning o‘zi ikkiga bo‘linib: F.Bopp va V.Gumboldt hamda A.Shleyxer va G.Shteyntal davrlarini o‘z ichiga oladi.

F.Boppning xizmati shundaki, u qardosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib beradi. R.Rask asarlarida esa, so‘zlarning o‘z ma’nolarini o‘zgartirish mumkinligiga e’tibor beradi. Shuningdek, tub va o‘zlashgan so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qayd etadi, lisoniy hodisalarni tadqiq qilishda so‘zni mukammal morfologik tahlil qilish lozimligini tavsiya sifatida berib o‘tadi.

Tilshunoslikka juda katta hissa qo‘shgan olim V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro‘-e’tiborini ko‘taradi va ayni falsafaga butunlay yangi yo‘nalish beradiki, bu yo‘nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zinch bog‘langan holda, uning asosida yuzaga keldi. U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmetlarni anglatish vazifasini bajaruvchi sifatida baho beradi. Ayni vaqtida olim tilning murakkab o‘zaro qarama-qarshi xususiyatlardan iborat ko‘p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi. V.Gulboldt o‘z asarlarida tilning so‘z va grammatik qoidalardan iboratligini, til birligi bo‘lgan so‘zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini qayd etadi[2. B.90].

V.Gumboldt lisoniy ta’limotning eng muhim nuqtalaridan biri til shakli haqidagi ta’limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir. U til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishlar, ya’ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana bir til formasining sistema sifatida namoyon bo‘lishdir. Ya’ni har bir til elementi birligi boshqa elementiga ko‘ra mavjuddir, u bilan o‘zaro bog‘liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog‘liqligidan iborat ekanligini aytgan[2. B.91].

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, ashyosidir, uning tovush sistemasidir. Ichki formani esa, xalqning ruhi bilan bog‘laydi ham so‘z orqali ifodalangan ma’no tarzida beradi.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb, so‘zning nutqda qo‘llanadigan qiyofasini so‘zning grammatik formasi deb ta’riflaydi. Uning bu fikrlari hamda “ichki forma” haqidagi nazariyasi, ayni ta’limotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu g‘oyalar umumtilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

V.Gumboldt tomonidan tilning sistema sifatida talqin qilinishi, uning organik bir butunlik sifatida berilishi A.Shleyxer, F. de Sossyur, Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta’minotlariga ta’sir qildi, ularning lisoniy g‘oyalarida kuzatiladi. O‘sha davrda tilni jonli organizm sifatida baholashga qarshi chiqqan olimlar Boduen de Kurtene “Til organizm emas” Potebnya - “Tilni organizm deb atash, demak, u haqida hech narsa demaslikdir”, “organizm mustaqil yashaydi. So‘z esa faqat inson bilan bog‘liq holda uning nutq a’zosi orqali yashaydi” kabi fikrlarni bildirishgan.

A.Shleyxerning lisoniy ta’limoti, asosan, haqqoniy, materialistik edi. U o‘zining “Qiyosiy – lisoniy tadqiqotlar” va “Nemis tili” asarlarida til va tafakkurni dialektik munosabatda olib, tilni “Talaffuz qilingan tovushlar orqali fikr ifodalash” deb ta’riflaydi. “Til bu fikrning tovush orqali ifodalishlardir” degan xulosani ham beradi. Ayni fikrlardan til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi, “bir butunligi”, ajralmas munosabatda ekanligi, shuningdek, tovushning moddiy hodisa sifatida til va nutqning materiali, moddiy asosi, moddiy “quvvati” ekanligi kabi fikrlar, xulosalar kelib chiqadiki, bu o‘z davri uchun yuksak ilg‘or g‘oyalar edi[2. B.98-99]. Olim tilni jonli organizm sifatida baholaydi.

Tilshunoslikdagi psixologik oqimning - psixologizmning yirik vakili, asoschisi nemis nazariyotchi tilshunos olim G.Shteyntalning fikricha “Tilni xudoning yoki odam ruhining aksi, ko‘rinish, ifodasi” – deb talqin qiladi[2. B.100].

Tilshunoslikdagi sotsiologik ta’limot asoschilaridan biri F. de Sossyur til va nutq masalasini jiddiy tahlil qila oldi. U lisoniy ta’limotning muhim jihatlari sifatida quyidagilarni ifodalaydi[2. B.108-110]. F. de Sossyur til (nutq) birliklari orasidagi munosabatni, o‘zaro bog‘lanishni



paradigmatik va sintagmatik munosabatlarga ajratadi. Paradigmatik munosabatda til birliklari bir paradigmada joylashadi, sintagmatik munosabatda esa, til birliklari biri ikkinchisi bilan semantik-sintaktik munosabatda bo‘lib, so‘z birikmasi yoki gap hosil qiladi.

Xullas, XX asr tilshunosligida eng muhim hodisa tilning sistemaligi g‘oyasi hamda til va nutqni farqlash, til va nutq dialektikasi bo‘ldi. Olimning qarashlari struktural lingvistikating – strukturalizmning yuzaga kelishida muhim sabab bo‘ldi. U o‘zining “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida (1916) strukturalizmning eng asosiy, bosh g‘oyalarini ta’kidlab o‘tdi[2. B.111-112].

Amerika strukturalizm XX asrning 20-30 yillarda mahalliy aholi (indeystlarning) tilini o‘rganish natijasida maydonga kelib, Frants Boassdir asoschi sifatida tan olinadi. Amerika strukturalistlari tilga belgilari sistemasi sifatida qaraydilar. Aniqrog‘i ular tilni nutqda qo‘llanuvchi tovushlar, ularning nomi sifatida tushunadilar. Ayni vaqtida ular tilda faqat tovush emas, balki ma’noni ham farqlaydilar[2. B.116].

Glossematikalarda til sinxron – hozirgi bir davrdagi sof munosabatlarning mavhum sistemasi sifatida beriladi. Bunda har bir aniq tilning o‘ziga xosligi, xususiyatlari inkor qilinadi. Ular “tilshunos tilning real elementlari orasidagi o‘zaro munosabatini emas, balki tildagi zamон va makon chegarasi bo‘lmagan munosabatlar strukturasinigina tekshirish lozim”, degan universal ta’limotni yaratmoqchi bo‘ladilar. Shunday qilib “munosabatlar lingvistikasi” birinchi o‘ringa qo‘yilib, real tillar, ularning tovush materiyasi va ma’no masalasi ikkilamchi hodisa deb qaraladi[1;3;4;5;6;7].

L.Elislov F.de Sossyurning til va nutq antinomiyasiga munosabat bildirar ekan, u nutqni individual jarayon sifatida tushunib, unga sxema – til sxemasi, norma – til normasi va uzus – til uzusini zid qo‘yadi[2. B.118].

Strukturalizm makteblari bir-biridan tashkil topgan joy nomiga, tilni struktura hodisa sifatida olib, uni tuzilishiga ko‘ra tahlil qilishi, qo‘llaniladigan metodlariga ko‘ra, lisoniy hodisalarga qaysi pozitsiya nuqtai nazaridan yondashishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Lekin bir umumiy g‘oyaga ko‘ra birlashadilar.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha eng mukammal grammatika sifatida tan olingan arab grammaticasini esga olmay iloj yo‘q. Chunki o‘sha davrda ham arab grammaticasi ilg‘orlar qatorida edi. Arab olimlari Qur’onni tushunarli qilish, klassik arab tilini siridan saqlab qolish maqsadida jiddiy ishlar olib borganligi ilmiy asarlarda o‘z isbotini topib turibdi.

Yuqoridagilardan tashqari, tilshunoslikning barcha jabhalarda tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borgan F.Bopp, V.Gumboldt, A.Shleyher, G.Shteyntal kabilar olimlarning fonetika, leksikologiya, morfologiya va stintaksisga oid ilmiy nazariyalari tilshunoslik fanning rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadи.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: TDPI, 1972.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan texnologiyalar, 2007. –B. 29.
3. Loya Ya.V. Istorya lingvisticheskix ucheniy. – Moskva, 1968.
4. Kondrashov N.A. Istorya lingvisticheskix ucheniy. – Moskva, 1979.
5. Sharipov F.G. Attitude to the piural affix in Uzbek language // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. – Buxoro. 2021. №1. –B.50-64.
6. Sharipov F.G., Sharipov T.F. O‘zbek tilshunosligida morfonologoyaga doir talqinlar // Academic research in educational sciences. – Toshkent, 2021. №2/2.



NUTQ MADANIYATI TO‘G‘RISIDA BIR SO‘Z

Muhirov Ravshanbek Urol o‘g‘li
Guliston davlat universiteti magistranti,
Telefon: +998933245897

Annotatsiya. Maqolada nutq madaniyati va u bilan bog‘liq masalalar aks etgan bo‘lib, bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining assoiy nuqtasi bo‘lgan muammoli vaziyat to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nutq, – til me’yorlari, til, so‘z, urg‘u, uslub, sinxron, diaxron.

Nutq madaniyati atamasi adabiyotlarda asosan ikki xil ma’noda ishlatiladi: Birinchidan, nutq madaniyati deyilganda, nutqning fazilatlari (sifatlari) yig‘indisi, bu fazilatlarning tizimi tushuniladi; ikkinchidan nutq madaniyati atamasi namunaviy nutq sirlarini egallash haqidagi ta’limotni anglatadi¹. Nutq madaniyati tushunchasi bu, avvalo, to‘g‘ri va shu bilan birga yaxshi so‘zlash, ya’ni madaniy-nutqiy protsess demakdir. Ammo madaniy gapirish uchun nutqda xizmat qiluvchi madaniy vositalar, ya’ni aniqrog‘i madaniy til vositalari lozim bo‘ladi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, madaniy nutq ikki omil asosidagina yuzasiga chиqa oladi: a) madaniy til (adabiy til) vositalarining mavjudligi; b) ushbu madaniy til vositalaridan gapirganda yoki yozganda maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish.

Keltirilgan ikki omil asosida nutq madaniyati hodisasi ham, bizningcha, ikki xil talqin qilinishi va nomlanishi lozim bo‘la-di. a)til madaniyati; b) nutq madaniyati yoki so‘zlashuv madaniyati.

Tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati va so‘zlash madaniyati tushunchasiga ajratish izchillikka ega emas. Umuman, bu ikki tushuncha, asosan, birga yoki qorishtirilgan holda, nutq madaniyati yoki til madaniyati atamasi bilan yuritilmoqda. Nutq madaniyati tilda ma’lum me’yorda keltirilgan til birlik-larining nutqda, qo‘llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me’yorga amal qilishni ma’lum ma’noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi nutq va kamchi-liklar tashkil qilinib, kamchiliklarni tugatishning eng ma’qul yo’llari ko‘rsatib turiladi. Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimiz-ning, davlat va jamoat arboblarining, pedagoglar va matbuot xodimlarining hamma journalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlari bo‘yicha qat’iy me’yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olinib o‘tgan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko‘pgina munozarali masalalar o‘zlarining nazariy asosiga qo‘yildi.

Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlashuvi hamda me’yorlashuvida yozuvning xizmati katta bo‘lib kelayotganligi shubhasiz. Nafaqat tilning me’yorlashuvi, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida ham yozuvning o‘rnini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalq, millat tsivilizatsiyasi u yaratgan yoki foydalangan yozuvga ham bog‘liq. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o‘rni, egallagan mavqeい haqida so‘z yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanim kelgan oromiy, yunon, haroshta, sug‘d, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg‘ur, arab, lotin, rus (kirilltsa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, shubhasiz, o‘zbek xalqi asrlar davomida foydalanim kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Qadigmi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida e’tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning si-fatlarini o‘zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan Mashhur notiq Tsitseron fikricha, anqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o‘tirishning ham hojati yo‘q. Ammo notiq tinglovchilarini o‘ziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali etarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo‘lishi ham kerak. Notiq Dio-nis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan.

Agar nutq ma’lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Aytilganlarni

1 Ahmedova X. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - Qo’qon, 2003, -B. 30–31.



qisqacha umumlashtiradigan bo‘lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo‘ladi: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta’sirchanlik, timsollilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik.

Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi tomonlarning – so‘zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o‘quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta’minlaydi. Agar nutq to‘g‘ri bo‘lma-sa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo‘lmaydi. Demak, nutqning to‘g‘ri bo‘lishi dastlab uning adabiy til me’yorlariga muvofiq kelishi bo‘lib hisoblanadi.

Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosan ikki me’yorga – urg‘u va grammatik me’yorga amal qilishni taqozo etadi. Nutq jarayonida ma’noni to‘g‘ri anglatish uchun so‘zdagi bo‘g‘in, gapdagi so‘z urg‘usining to‘g‘ri ishlatalishiga e’tibor qilishimiz lozim bo‘ladi.

Nutq qurilishining grammatik shakllarini farqlay olish so‘zlarni mazmuniy bog‘lanishlariga qarab joylashtirish grammatik me’yorlarni belgilar ekan, nutqning to‘g‘ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o‘zlashtirish, o‘zak va qo‘srimchalar o‘rtasidagi munosabatlarni, ega-kesim mosligini, ikkinchi darajali bo‘lak-larning ularga bog‘lanish yo‘llarini yaxshi anglash lozim bo‘ladi. Aks holda nutqda kamchilik ro‘y beradi. Misol: Alfavitimizga qo‘srimcha harflar kiritish yoki chiqarish bilan nutq madaniyatimiz- ni oshirish uchun imkoniyat yaratilmay, balki nutq madaniyatimiz takomillashuvida chalkashlik sodir bo‘lishi mumkin emasmi? F.Ishoqov shoir Turob To‘la ijodida, hatto, uning prozaik asarlarida inversyaning haddan tashqari, cheklanmagan darajada ko‘p ishlatalishini achinib gapiradi. Ayrim namunalar: Mana kim bo‘lsa, deydi farzandim inson. Domla o‘ylab turib, bu “Sadrash” bo‘lsin dedi, bo‘lmasa. O’shanda o‘sha shoir ukrain tilida “Pushkin va chaqmoq” degan she’re o‘qib ketdi, yodaki birdaniga¹.

Ma’noning to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifoda etishida ohangning ham xizmati katta. So‘zlarga qaysi yo‘sinda urg‘u berilishiga o‘zgarib borishi mumkin. Masalan, nutq jarayonida kelting so‘zidagi samimiyyat, piching, masxaralash, norozilik kabi ottenkalar faqat ohang yordamidagina reallashadi.

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatalish, nutqni to‘g‘ri tuzishga erishish, har bir til birligini o‘rniga qo‘yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan sanaladi.

Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to‘g‘rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo‘lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va hodisalar o‘rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o‘zidir. A. Qahhorning ijodi hamda til mahorati haqidagi ayrim mulo-hazalari diqqatga sazovordir. Ma’ruf Hakimning “Qahramonning o‘limi” hikoyasini tahlil qilgan yozuvchi Botir beliga qator beshta bomba qistirib, qo‘lida bomba ushlagan holda ko‘chaga yugurdi jumlalaridagi bomba so‘zining noto‘g‘ri qo‘llanganligini, yozuvchining bomba va granatani farqlamasligini tanqid qiladi. A.Qahhor tahlilda davom etib, hikoyadan yana misollar keltiradi. Botir “Sul-ton akaning oyoqlarini silaganda qo‘liga elimga o‘xhash bir narsa yopishganligini sezdi: qorong‘uda nima ekanligini bilolmay qoldi”. Shu ernaling o‘zida “Jenya yigitning ko‘ziga uzoq tikilib qol-di”. Qo‘lga tekkan qon ko‘rinmagan yigitning ko‘ziga qorong‘ida ko‘z ko‘rinadimi, deydi yozuvchi². Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaf-faqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib etmasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e’tiborsizlik oqibatida ba’zan man-tihsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolda diqqat qilaylik: Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar (Gazetadan). Gapda so‘zlarning tarti-bi to‘g‘ri bo‘lmaganligi, olti oylik birikmasining davlatga so‘zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etayapti, fikrni bayon qilishda xatolik yuz berayapti.

So‘zlarni bir-biriga mazmunan bog‘lash, ular o‘rtasidagi grammatik aloqani to‘g‘ri shakllantirish

¹ Ishoqov F. E‘tiqodimiz ham bor, e’tirozlarimiz ham // Nutq madaniyati-ga oid masalalar to‘plami. - Farg‘ona, 1973, -B.112–119.

² Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. -Toshkent, 1968, -B. 44–46.



sintaktik me'yorga amal qilishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Mana bu misolda kuy va raqs so'zlarining direktor tomonidan uyg'un tarzda qo'llanib yubori-lishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling (televideniyadan).

Demak, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lган, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilishqilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tiliga, uning talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak. Chunki u boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lган va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda bo'layotgan o'zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo'lishi lozim.

Ijtimoiy muhitning tildan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi tabiiy bir holdir. Kishilar o'z nutqlarida bilibbil-may yoki e'tiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydalanadilar. Boshqa millat vakillari bilan yashash, mehnat qi-lish, ta'lim olish, xullas, muomala jarayonida shunday hollar yuz beradi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish nutqda zaruriyatga ko'ra ulardan foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlama mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuq-tai nazaridan munosabat bildirish lozim.

Gap shundaki, varvarizm sifatida qaraladigan nu, kak, vot, voobhe, tolko, tolko tak, estestvenno, ob'yazatelno, konech-no, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem bolee, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razreshene olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni kabi so'z va birikmalarning o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Bu-ning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatilishini ijo-biy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

Imkonи boricha badiiy adabiyotda ham vulgar so'zlarni ishlatishdan qochish kerak. Chunki badiiy adabiyot kishilarga estetik ta'sir o'tkazish vositasi bo'lishi bilan birga, tarbiya manbai ekanligini ham unutmasligimiz kerak.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylig, xushmuomala-lik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatlari haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil etish pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedova X. O'qituvchi nutqi madaniyati. - Qo'qon, 2003, -B. 30–31.
2. Ishoqov F. E'tiqodimiz ham bor, e'tirozlarimiz ham // Nutq madaniyatiga oid masalalar to'plami. - Farg'ona, 1973, -B.112–119.
3. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. -Toshkent, 1968, -B. 44–46.



MODERN METHODS OF TEACHING LISTENING SKILLS

Abduraximova Muxabbat Abdusamidovna,
an English teacher of Namangan region,
Kasansay district, school#9.
Tel:+ 998943013016

Annotation: The article deals that the modern teaching with listening skills. Also, it is given the easy way improving languages listening skills below.

Keywords: listening, improvement, strategies, pronounce, development, skills

Teaching listening skills is one of the most difficult tasks for any teacher of English as a foreign language. This is because successful listening skills are acquired over time and with a lot of practice. Effective, modern methods of teaching listening skills encompass everything from interactive exercises to multimedia resources. Listening skills are best learned through simple, engaging activities that focus more on the learning process than on the final product. Whether you are working with a large group of students or a small one, you can use any of the following examples to develop your own methods for teaching students how to listen well. Teaching listening can be done with various techniques, such as the use of a tape recorder, answering questions according to the text, rewriting songs, listening to television by watching video movie clips or CD-Rom, listening to the radio and using dictation, etc.

Principles for Good Listening:

1. Basics: Pay Attention. Even native speakers need help with this.
2. Practice Active Listening. Ask the speaker to slow down or repeat when you don't understand or just want to be certain about what you heard.
3. Pay Attention to Structure.
4. Listen for Key Words.
5. Key Phrases or Markers.

The improvement of listening skills depends on the level of development of students' phonological competence, which includes not only the correction of pronunciation of English sounds, but also the formation of listening skills, the correct use of their speech organs to reproduce sounds and intonation. The most difficult task is understanding a native English speaker. To solve this problem it is necessary to pay attention to typical of spoken English phonetic phenomena: the positional length of vowels; strong and weak forms; reduction (for example, the phrase "We have come for the books" it is easier to hear and understand [wi: hæv kʌm fɔ: ðə buks] than [wi:v kʌm fə ðə buks]; Elizeu [him - im]; assimilation [lesʃɪ - leʃɪ]; splicing [wʊdju:lɑɪk ... - wʊdʒlɑɪk ...]. Language begins with hearing. Here are examples of some strategies aimed at understanding English speech.

Phonetic strategies: The student should listen carefully and pronounce words and sentences aloud. It must be remembered that words that are pronounced the same way may have different spellings and meanings (thread and through). Identical letters or letter combinations in words do not always give the same sound (the combination of letters "ough" in different words is pronounced differently [θru:] and "though" [ðəu]).

Phonological strategies: It is important for the student to pronounce the words clearly and avoid phonological errors that distort the meaning of the utterance. (Are you fond of working here?/ Are you fond of walking here?).

Listen and imitate individual sounds, pay attention to the pauses and intonation of the speaker. Practice "active listening", the ability to perceive and remember details of information.

Due to the fact that the ability to listen effectively is an extremely important skill in teaching, each of us should take some time to assess how well we listen to our students. Think about the following principles:

The principles of effective listening are based on the knowledge and use of the factors that determine its effectiveness: attitude of listeners; listeners' interest; motivations of listeners; emotional state of listeners. The attitude of listeners: Effective listening requires an objective, open-minded, cooperative attitude of listeners.

Interests: People's interests can be primary, secondary and momentary. Primary interest exists



when a person has a direct interest in what the speaker is talking about, when his ideas relate to everyday life. Secondary interests are universal interests concerning general issues of society (laws, programs, etc.)

Motivation: A person listens willingly when a speaker touches his basic desires and needs (money, increasing prestige, authority, preserving things dear to a person, etc.).

Emotional state. The speaker should understand that the audience listens better when it is free from emotional discomfort.

Summing up, it should be noted that in order to form listening skills, it is necessary to use authentic material in the classroom that corresponds to the level of language proficiency of students, relevant to the topics studied and vocabulary. And also watching TV shows with the original English track will allow the student to train the skill of “passive listening”, which will facilitate a smooth transition to the proactive use of listening. Repeating what you have heard one-on-one or the “parrot” technique is effective during passive listening. Such repetition involves facial expressions, makes it possible to listen to the sounds and rhythm of speech, allows you to practice listening and it is not necessary that the student understands everything in detail.

References:

1. Brown, G. & Yule, G. (1983). Teaching the spoken language, CUP Krashen, S.D. (1981). Second Language Acquisition and Second language learning, Pergamon Lynch, T. & Anderson, A. (1988).Listening, OUP.
2. Field, J. (2008). Listening in the language classroom, CUP Richards, J. C. (1990). The Language teaching matrix, CUP.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR

Norova Fazolat Komilovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani
281 – maktab ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanida qo’llaniladigan interaktiv metodlar haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: interaktiv metodlar, zamonaviy o’qituvchi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o’z navbatida o’quv jarayonining tashkili va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o’zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko’pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog’liq.

Har beldarsni o’ziga xos usul asosida o’tish, o’quvchining fanga bo’lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg’otish o’qituvchining mahoratiga bog’liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o’z darslarida qo’llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o’qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minalash, mustaqil fikrashga o’rgatish, bilim va hayotiy ko’nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg’ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg’or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o’tilgan mashg’ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo’llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o’qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg’ulotga aylanadi.

Ko’p yillar davomida an’anaviy dars o’tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo’lib keldi. An’anaviy darsda o’qituvchi faol, o’quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o’quvchining mustaqil fikrashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o’quvchilarining qiziqishini orttirib, ularning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minalashni taqozo etadi.

Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo’g’in hisoblanadi. Ular o’qituvchi va o’quvchilarining o’zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg’ulot turidir. Bunda o’qituvchi va o’quvchi o’zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to’qnashuvi yuzaga keladi. O’quvchining erkin fikrash jarayoni yangi pog’onaga ko’tariladi. O’qituvchi shu tarzda o’quvchilarini faollashtiradi, o’zlashtirishi past o’quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Darsning mazmunli o’tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o’qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to’g’ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o’qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o’tishni talab etadi. Buning uchun o’qituvchi doimo o’z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo’lishi va o’z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo’lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o’tib, yaxshi natija bergen. Keng qo’llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so’rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o’tilgan mavzuni so’rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi”



metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo’llash dars samaradorligini ta’minlab, o’quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo’q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o’yinlardan foydalanish mumkin. O’yin vaqtida o’quvchilar o’zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o’quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni o’rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o’quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O’qituvchi va o’quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo’lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o’quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo’llash natijasida o’quvchilarning fanga bo’lganqiziqishlarini oshirishga, o’zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o’ziningnuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro’yxati:

1. Rafiyev A. , G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro’z”, 2018.



**PIRIMQUL QODIROV TARIXIY ASARLARINING O'ZLASHMA QATLAMGA
MANSUB SO'ZLAR TAHLILI**

Islomov Sardor
TerDU Lingvistika: o'zbek tili 2- bosqich
magistranti

Annotatsiya: Maqolada Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari tarkibida uchrovchi o'zlashma qatlamga mansub so'zlar haqida so'z yuritiladi. O'zlashma so'zlar, asosan, fors-tojik, arabcha, hindcha va turkiy so'zlarni o'z ichiga oladi. Pirimqul Qodirov tarixiy romanlariida ana shunday xorijiy leksik birliklarga onda-sondagina murojaat qiladi. Agar e'tibor berilsa, romanlarda ishlatilgan arabcha, fors - tojikcha so'zlarning asosiy qismi personajlar nutqida emas, balki muallif tilida uchraydi.

Kalit so'zlar: Tarixiy romanlarida o'zlashma so'zlar, tarixiy va arxaik leksemalar, etimologiya, tarixiy romanlarda arabcha va fors-tojikcha so'zlar.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr eski o'zbek adabiy tilida arabcha va forscha-tojikcha so'z va iboralardan, izofali birikmalardan foydalanish ancha avjiga chiqqan edi. Bu haqida kitobning ikkinchi bobida ham to'xtalganmiz. Bu hodisa, asosan, nazmiy asarlar tilida ko'p uchraydi. Lekin, shunga qaramay, Boburning «Boburnoma» asarida adabiy til sohasidagi bu an'anaga unchalik ruju qilinmaydi. Bobur o'z asarida arabcha - forscha elementlardan keragidan ortiq darajada foydalanmaslikka harakat qilgani kabi Pirimqul Qodirov ham ushbu romanida ana shunday xorijiy leksik birliklarga onda-sondagina murojaat qiladi. Agar e'tibor berilsa, romanda ishlatilgan arabcha, fors - tojikcha so'zlarning asosiy qismi personajlar nutqida emas, balki muallif tilida uchraydi. Shulardan ko'pchiligi kitobxoniga tanish, tushunilishi oson, izoh talab qilmaydigan kaniz, hazrat, hokim, xobgoh, haram, ark, qal'a, kamina, xaloyiq, jang, setor, faqir, sarboz, ash'or, kitobdor, maktub, noma, dastorpech, vazir, muhrdor, bogot, maxfiy kabi so'zlardir. Lekin tarh (chizma, loyiha), musavvir (rassom), dorug'a (shahar hokimi), buzdil (echkiyurak, qo'rkoq), kadxudo (qishloq oqsoqol), rikobdor (uzangichi), fiqh (musulmon qonunshunosligi), bariyat (bek va a'yonlar), raiyat (fuqaro), musohib (suhbatdosh), mavkab (podshoh va uning barcha a'yonlari, yaqinlari), haftkor (etti xil rang), sahhob (muqovachi), fatorat (alg'ov-dalg'ov), sangfarsh (go'zal toshlardan gul yasash), barak (chuchvara), chaqardiza (shahar tashqari-sidagi qal'a), nasta`liq (arab yozuvidagi husni xatning keng tarqalgan bir turi), Dabusiya (temir qo'rg'on), Saripul (bir qishloq nomi), unsiya (do'stlik uyi), nadim (suhbatdosh), rub'i maskun (dunyoning inson obod qilgan qismi), navohi (tuman), revu rang (shumlik, o'z ishiga puxtalik), shabpo'sh (kechasi kiyib yotiladigan do'ppisimon yengil bosh kiyimi), ko'hak (kichik tog'), guftigo' (gaplashish), justijo' (qidirish), shustisho' (yuvish), band (suv omborining to'goni), tano' ta'rif (ta'nasiyu maqtovi), barqzan (chaqmoq chaqib, miltiqning piltasini yondiradigan odam), muhandis (injener), xatm qilish (tugatish), muqayyim (javohirshunos, zargar) kabi anchagina arabcha-forscha so'zlar ham romanda ko'zga tashlanadiki, bular, asosan personajlar nutqida berilgan. Bunday so'zlarning ma'-nosi hozirgi zamon kitobxoniga unchalik tushunarli bo'limgani uchun ularning ma'nosini muallifning o'zi shu so'zlar ishlatilgan sahifalar oxirida izohlab bergen holatlari ham bor.

Arab, fors-tojik tillariga xos elementlar orasida izofali birikmalar ham bor. Forscha-tojikcha izofa, bizning fikrimizcha, o'sha davr turkiyzabon aholisining nutqida qariyb ishlatilmagan. Ular, asosan, nazmiy asarlar tiliga xos bo'lib, nasriy asarlar tilida kam uchraydi. «Boburnomada» ham forscha-tojikcha izofa kons-truktsiyasi faqat ikki joyda (55, 73-betlarda) uchraydi, xolos. Romanda ham forscha-tojikcha izofali so'z birikmali unchalik ko'p emas, borlar ham personajlar nutqida uchraydi. Masalan: moli amon (70), islumi gulxan (81), naqshi lola (81), toji sar (88), sohibi iste'dod(93), sohibi qudratz' (93), shamshiri xos (97), onai zor (106), validai muhtarama (108), xonai xos (114), G'ori oshiqon (116), farmoni oly (116), xullasi kalom (127), ahli oila (157), joyi namoz (163), guli bodom (165), sohibqironi a'zam (169), xoqoni muazzam (169), rubi maskun (302), puli sangin (383), ko'li malik (401), bodi samum (479), vajhi tasmiya (495), buqai xayr (504), bani bashar (507) va boshqalar. Bu kabi forscha-tojikcha izofalar o'sha davr adabiy tilida trafaret ifoda shakliga kirib qolganligi sabali Pirimqul Qodirov ham ularni o'z romanida o'zgartirmay, o'zbekchaga o'girmay, o'z holida ishlataverishni lozim ko'rgan. Fors-



tojikcha izofa belgisi arabcha eski o’zbek yozuvida aks ettirilmaydi. Hozirgi kirillcha o’zbek yozuvida esa bu belgi - «и» shaklida yozilishi qonunlash-tirilgan. Fors-tojikcha izofalarni shu tarzda yozish qoidasiga Pirimqul Qodirov ham o’z romanida muntazam amal qilgan. Lekin ba’zi izofa birikmalar romanda izofa belgisiz sohibqiron, sohib iste’dod, sohib qudrat, joyi namoz tarzida aks ettirilganki, bu ham o’zini oqlaydi. Negaki shu tipdagи foscha-tojikcha izofali birikmalar eski o’zbek tilida «-и» izofa belgisi ishtirokisiz talaffuz qilinar edi.

XIV-XVI asr eski o’zbek tilida arabcha izofa shaklidagi birikmalar ham ba’zan ishlatilar edi. Buni biz ko’proq ayrim asarlar nomlarida uchratamiz. Arabcha so’zlarning o’zidangina tuzilgan arabcha izofali birikmalar «Boburnoma»da ham, Bobur to’g’risida yozilgan ushbu romanda ham kamdan - kam ko’zga tashlanadi. «Bobur» romani tilida biz ana shunday arabcha izofali birikmalarni faqat ayrim personajlar tilidagina, uch-to’rt joyda uchratdik. Jumladan, Boburning ustozи Xo’ja Abdulla nutqida:

«...biz Samarqandday olamshumul dorussaltanaga tuyassar bo’lganimiz uchun shukronalar aytmog’imiz kerak» (126). Marg’ilondan kelgan chopparning Boburga qarata aytgan gapida: «Janob amiral umaro, Tanbalning amaldoru soliqchilari ham jabr-zulmni haddidan oshirib yubordi» (162). Bobur nutqida: «-Mavlono, «Qabib us-siyar»ni necha yil yozgansiz» (510).

Keltirilgan uchta misoldagi uchta arabcha izofali birikma romanda bir xil emas, uch xil imloda yozilganligini muallifning o’ziga havola qilamiz. Romanda tasvirlangan personajlarning tili o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, obrazni tipiklashtirishda yordamchi rol o’ynaydi. Ayrim personajlarning Boburga nisbatan qazratim, qazrati olyi, qazrati oliylari, mirzom, mirzo hazratlari, amirzoda, amir-zodam, pushti panohim degan so’zlar bilan, Qutlug’ Nigorxonim va Xonzoda beginlarning Boburjon deb murojaat qilishlari, Bobur xonadoni ayollariga nisbatan begim, xonim, hazrat honim, xonim hazratlari, olyi nasab begin kabi so’z va iboralarni ishlatyshlari o’sha davr kishilarining bir-biriga bo’lgan hurmat va muo-mala-munosabati qanday til vositalari bilan ifodalanganligini ko’rsatadi. Yana shu narsa ham xarakterlik, XV-XVI asr eski o’zbek adabiy tilida, ayniqsa, Alisher Navoiy va Muhammad Solih asarları tilida I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi (men)ning ma’nosini berish uchun alohida stilistik bo’yoqqa ega bo’lgan faqir, bu faqir, bu qul, qulingiz, banda, bu banda, kamina kabi so’zlar va so’z birikmaları amalda qo’llanilar edi. Kamtarlik, xoksorlik belgisining tildagi ifodasi deb hisoblash mumkin bo’lgan bunday so’z va iboralardan Pirimqul Qodirovning ham o’z roma-nidagi ayrim personajlar nutqini individuallashtirish va ular xarakterini ochish maq-sadida foydalangan. Jumladan, romanda faqir so’zi ikki ma’noda qo’llaniladi. Birinchidan, o’z asl «kambag’al», «bechora» ma’nosida: «faqiru bechoralar ochdan o’lmaslik uchun eshak go’shtini, it go’shtini yeyishgacha yetib bormishlar» (114). Ikkinchidan, bu so’z biz yuqorida ta’kidlagan «men» olmoshi o’rnida: «... bu hujraning devorlariga ham faqir shularni ishlatmishmen» (83). Ammo beklarning ba’zi andishalaridan faqir xabardormen (89); Faqir u zotni ustoz o’rnida ko’rur edim (117); Begim, faqir dunyodan toq o’tmoqchimen (133). Ayni shu ikkinchi ma’noda qulingiz, kamina so’zlar ham ayrim personajlar tilida kamtarlik belgisi sifatida ishlatiladi. Masalan: Amirzodam, qulingiz chora topishdan ojizmen (88); Qulingiz aytmoqchi ... (88); Kamina Andijon qo’rg’onini mudodofaga tayyorlash bilan band bo’lurmen (36); kamina Bobur mirzo huzuriga kiray (59). Kutganlar, axiyriadolat g’olib chiqqan kunlarga yetganmiz (160). Siz o’shalarga murojaat qiling (16). Siz bilan urush boshlagan iningiz Umarshayx mirzo jardan yiqilib shunqor bo’ldi! (58).

ADABIYOTLAR

1. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008.
2. Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. doktori diss. avtoref. –T.: 2009.
3. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – T.: O’qituvchi, 1996.
4. Qo’ng’urov R. O’zbek tilining tasviriy vositalari. -T.: 1976.
5. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -T.: 1982.
6. Qodirov P. Tanlangan asarlar T.: 1982.



ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH.

Kolondorova Laylo Kurbonboyevna

Urganch tuman 19-sون umumiy
o’rta ta’lim maktabi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’quvchilarining mantiqiy fikr, tafakkur qila olish, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashini, kommunikativ qobiliyati, erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish haqida

Kalit so’zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiya, bilimlar va ko’nikmalarning hosil bo’lishi va to’planishi topshiriqlarni, nutqiy faoliyat tajribasini shakllantirish

Ma’lumki, nafaqat o’qish fani, balki ona tili fani ham bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Ona tilidagi har bir mavzu bola nutqininig boyishiga qaratilishi lozim, shuning uchun o’quvchining fanga oid nazariy ma’lumotlarni chuqur o’zlashtirishi, yodda saqlab qolishida keltirilgan turli mashqlar, matnlarning ahamiyati katta. Ta’kidlaganimizdek, ona tili darslarida o’quvchilarning ijodiy tafakkurini o’stirish, mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish asosiy masalalardan hisoblanib, bu masalalarni nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirish jarayonida amalga oshirsa bo’ladi. Buning muhim bosqichlaridan biri matnlar ustida ishlashni yo’lga qo’yishdir, bu jarayon o’quvchida og’zaki va yozma nutqning rivojlanishi va barqarorlashuvni uchun zamin yaratadi, shuni ham unutmasligimiz lozimki, matn o’quvchining nutqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. “Fikr bayon qilish gap (sodda gap va qo’shma gap) doirasi bilan chegaralanmaydi. To’liq fikrni, odatda, gapdan katta butunlik beradi”, gapdan katta butunlik esa matndir. Bilamizki, matnlar yaxlit syujetli, mavzu jihatidan xilma-xil bo’lib, ularda inson, axloq, tabiat, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik mavzulari yetakchi bo’ladi, eng asosiyisi, ular tarbiyaga chorlashi kerakdir. Shuni nazarda tutgan holda, o’qituvchi o’quvchidagi mavzuga oid bilim, ko’nikma va malakalarni vatanparvarlik ruhida yozilgan hikoyalar, she’riy matnlar orqali qaror toptirishi mumkin. Bu bilan o’quvchining mavzuga oid nazariy bilimlari mustahkamlanadi hamda Vataniga muhabbat hissi uyg’onadi. Buning uchun videoprojektordan foydalanish darsni samarali va unumli tashkillashtirishda muhim rol o’ynaydi. Dastavval matnga xos nazariy ma’lumotlar keltiriladi va misol sifatida matn beriladi. Videoproyektorga kiritilgan mavzuga doir ma’lumotlardan foydalanish o’quvchining bilimini yanada mustahkamlashga, matn esa ijodiy tafakkurining shakllanishi va dunyoqarashining kengayishiga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, o’quvchilarga biror badiiy matn berilib, uni badiiy tahlil etish topshiriladi. Avvalo, matnni ifodali o’qish talab etiladi. Beriladigan badiiy matn o’quvchining yoshi, qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni fikrlashga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, lug’at boyliklarini oshirishga qaratilishi muvofiq bo’ladi. Deylik, o’qituvchi she’riy matndan foydalanishi mumkin, she’riy matnda tuyg’ular ifodasi yetakchi bo’ladi va bola e’tiborini tortadi. Ikkinchidan, bunday matn sinfdagi nazariy ma’lumotni o’zlashtirishi, tushunishi qiyin bo’lgan yoki loqayd o’quvchilarning qalbini “qitiqlaydi”, ularni xushyor torttiradi. Shuni ta’kidlash o’rinlikni, bolaning kelajakda tortinchoq, jur’atsiz bo’lib shakllanishida boshlang’ich ta’lim davri juda muhim rol o’ynaydi. Shu sabab o’quvchini zinhor uyaltirmaslik zarur, ularni nimadir deyishga undash zarur. Qanday qilib undash mumkin? Quyida shu haqda izoh beramiz. Masalan, Sirojiddin Sayyidning “Ostona haqida qo’shiq” she’ridan parcha keltirish mumkin. She’r sarlavhasiz chiqariladi: 210 Sahar turib shukur qil, Shabnamlargacha gapirgil. O’z ko’nglingni supurgil, O’z uyingni supurgil. Ostongangni ko’rgilu, O’z onangni fikr qil. Qo’rg’onlaring, uylaring Mehnatu zahmatingdir. Ostongangga humranging – Onangga humrangingdir. Dastavval o’qituvchi matnni ifodali o’qiydi, so’ngra ifodali o’qiydigan o’quvchiga o’qittiradi va nihoyat o’quvchilarni birgalikda o’qishga undaydi. O’qituvchi bolalardan “Matn mazmunini barchamiz tushundika?,” degan so’roq beradi va ulardan matn mazmuni so’raladi, buning uchun quyidagi savollar videokoproyektor orqali beriladi: Nega yoshi ulug’lar duoga qo’l ochib shukrona qiladilar? Ostona deganda ko’z oldimizga nima keladi? Ostonomiz bilan onamizning o’xshashligi nimada deb o’ylaysiz? Uyimizni ozoda tutish lozimligini bilamiz, ko’nglimizni ham ozoda tutish uchun nima qilishimiz kerak? Uyimizning tinchligini kim asrashi kerak, yurtimizning tinchligini-chi? “Qo’rg’onlaring, uylaring Mehnatu zahmatingdir” misralaridan qanday ma’no tushundingiz? Savollar o’quvchilar diqqatini torta oladigan tarzda tuzilishi lozim, savol bolani to’lqinlantirsa, u, albatta javob izlaydi, javobni avval qo’l ko’targan, so’ngra jum o’tirgan o’quvchidan so’rash lozim,



uning ham qandaydir fikri bo’lishi, biroq aytishga botina olmayotgan bo’lishi mumkin. O’qituvchi javobni uning yoniga borib so’rasin, masalan, “Men sening fikrni ma’qullayman” yoki “Sen ham nimadir demoqchililingni payqadim” tarzida. U dastlab boshqa do’stlari kabi javob bera olmas, biroq u tortinchoqlik chegarasini “yorib o’tish”ga erishib, albatta o’z fikrini aytadi. O’qituvchi ana shunda aynan shunday o’quvchilarning fikrini davom ettirsa, to’ldirsa, xulosalasa, bolaning o’ziga ishonchi ortadi, u o’zini kashf eta boradi. Har bir o’quvchida matndan anglangan hikmat mushtarak bo’lishi lozimligiga erishmoq kerak, ya’ni o’quvchilar she’rda Vatanni sevish va asrash burchi nazarda tutilganligini anglab yetishlari lozim. Shuni ham ta’kidlash joizki, bu kabi matnlar o’quvchini asta-sekin obrazli fikrlashga o’rgata boshlaydi. Nihoyat o’qituvchi videoproyektor orqali ko’rsatilayotgan matn haqidagi nazariy bilimlarga o’quvchi diqqatini tortadi. Demak, matn nutqning yozma shakli ekanligi, ya’ni biror muallif tomonidan yozilishiga guvoh bo’linganlikni ta’kidlaydi. Buning uchun ularga birinchi misradagi gaplar mazmuni ikkinchi misradagi gaplar mazmuni bilan, ikkinchisi uchinchisining mazmuni bilan ketma-ketlikda bog’langanligi uchun ham yaxlit xulosaga kelganlarini anglatish joiz. Va nihoyat o’quvchilardan “Shoir qo’yan sarlavhadagi so’z matnda mavjud, matnga o’zingiz sarlavha qo’yib ko’ring-chi” deb topshiriq berish mumkin. Sababi sarlavha matnning eng muhim uzvi sifatida matn yaxlitligi va butunligini ta’minlaydi. M.Yo’ldoshev kuchli hissiy holat ifodalangan ba’zi she’rlarda sarlavha bo’lmasligini, biroq ba’zan ana shunday mazmundagi she’rlarda ham agar sarlavha bo’lmasa, matnni to’g’ri tushunish nisbatan qiyinlashishini ta’kidlaydi. O’quvchilar qo’yan sarlavhalar, albatta, rag’batlantirilishi lozim, shunda har bir o’quvchida matnga sarlavha qo’yish istagi tug’iladi. Asosiysi, ular fikrlayapti, ijod qilyapti, bu esa muhimi emasmi? Xulosa shuki, o’quvchi maktabga nafaqat ilm olish, balki o’zligini topish va anglash uchun keladi.



IMPROVING STUDENTS' SPEAKING SKILLS

Mamadjonova Sanoat Abduraxmonovna,
an English teacher of Namangan region,
Kasansay district, school# 3.
Tel:+ 998943084425

Annotation: The main purpose of the article is to find effective strategies that teachers can use to help ESL students improve their speaking skills and class participation.

Keywords: important, communicative competence, knowledge, speaking, goal

Language is a tool that we can use to communicate to each other. To communicate to the different country, we need global or international language. English is the one of global/international language, which is used by all people around the world. Education is very important to improve yourself but learning English also improves the quality of life. Teaching speaking is a very important part of second language learning which are: Listening. Speaking. Essentially, speaking is very important in learning a language because as a social creature human need to interact one and another to express their ideas and thoughts to arrange and persuade others and it is used because someone purposes in learning a language is to be able to communicate the language. According to Brown communicative competence is the goal of a language classroom.¹ It can be said that speaking such a communicative competence as a goal of language learning includes social context. Language competence that emphasizes on the production of speech which happens in real time is speaking competence. Speech may be in words, phrases and utterances in response to someone in a range of different genres. The ability to communicate in a second language clearly and efficiently contributes to the success of the learner in school and success later in every phase of life. Speaking skills are defined as the skills which allow us to communicate effectively. They give us the ability to convey information verbally and in a way that the listener can understand. Essentially, speaking a language helps to move your knowledge of grammar, vocabulary, and pronunciation from the back of your mind to the front, or from your ‘slow memory’ to your ‘quick memory’. Given time, this will improve their fluency and memory too. They revealed that the challenges they encountered most in teaching speaking are students’ lack of vocabulary, pronunciation problems, nothing to say, lack of motivation and the use or interferecnes of the mother tongue. The reason why speaking is difficult aspect for students to master because they do not having enough exposure to English (environmental factor), infrequent English speaking practice in daily life (they could use the mother tongue to communicate, instead of using English), feeling shy and laziness to learn English. Many of students cannot speak clearly when they talk with foreigner because they don’t know how to express what they want to say and how to say that. For it, they get a miss communication. To minimize the mistakes and get a good communication with native speakers or no, the learners must know and comprehend the use of expressions and the elements in speaking. Teachers as the focus of the present study are required to have many strategies in teaching. Consequently, speaking subject teachers need to speak actively in teaching and learning process and may use teacher’s talk to encourage the students to speak and respond the instructions in the speaking class actively. teachers need to focus on the speaking skills of the students?

First, speaking activities provide rehearsal opportunities (chances to practice real life speaking in the safety of the classroom). Second, speaking tasks in which students try to use any or all of the languages they know provide feedback for both teacher and students. Effective public speaking skills can help with career advancement, as they indicate creativity, critical thinking skills, leadership abilities, poise, and professionalism, qualities which are very valuable for the job market. Speaking skills can also help you excel in job interviews. And also speaking helps the EFL learners in fluency of language and to improve skills of learners need to confidence in their ability speaking for more attention speaking skill receive less consideration in classroom and to improve pronunciation to promote listening skill.

1 Brown, Douglas. H. 1994. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. United States of America: Prentice-Hall, Inc



Tips for Teachers to Improve Their Public Speaking Skills: Know What You Want To Say. For good communication, you first need to clarify what exactly you want to say. Don't Be So Nervous. Relax. Make a Note of The Highlighted Point. Don't Memorize. Use Simple Words. Don't be Fast During Speaking. Use Sense of Humor. How do you promote speaking in the classroom?

Activities To Promote Speaking skills: Discussions. After a content-based lesson, a discussion can be held for various reasons. Role Play. One other way of getting students to speak is role-playing; Simulations; Information Gap; Brainstorming; Storytelling; Interviews; Story Completion.

In addition, the teacher prompted the students to participate in the activities, and students' speaking is emphasized. Moreover, an activity involving competitive element where students work together can increase language productivity.

So, the classroom techniques is an interactive process of constructing meaning that involves producing, receiving and processing information. The achievements of good classroom techniques are when the people who interact understand each other and more easily to communicate well. Using game as the technique to teach speaking is the most interested way for the teacher and learners because it makes the learning processes in the classroom enjoyable. Using game also make the students happy not bored with classroom activity. The students can memorize the new vocabulary more easily. The technique also can develop their pronunciation.

References:

1. Brown, Douglas. H. 1994. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. United States of America: Prentice-Hall, Inc.
2. Richard, Jack C. 2001. Curriculum Development Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press. Parmawati, A. (2018). Using Analytic Teams Technique To Improve Students'speaking Skill.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

**Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусақхан: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000